

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI KUNDUZGI BO`LIM**

4-BOSQICH 403 - GURUH TALABASI

ESHMATOVA DILNOZANING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ta`lim yo`nalishi: “Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish”
Bakalavr darajasini olish uchun

TERMIZ – 2016yil

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI KUNDUZGI BO`LIM**

4-BOSQICH 403 - GURUH TALABASI

**ESHMATOVA DILNOZANING
ERGASHOVNA**

**4-sinf “Ma’naviyat qalb quyoshi”bo’limini turli
metodlarda o’rganish mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ta’lim yo`nalishi: “Boshlang`ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish”

Bakalavr darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar: _____ Sh.Choriyev

Taqrizchi: _____ Z.Amirqulova

Termiz – 2016

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. BOSHLANG`ICH SINFLAR O`QISH DARSLARINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, METODIKASI VA USULLARI	
1.1. Boshlang`ich sinf o`qish darslarining maqsad va vazifalari, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati.....	8
1.2 Boshlang`ich sinf o`qish darslarida qo`llanadigan metod va usullar.....	13
1.3. Boshlang`ich sinflarda o`qish malakalarining sifatleri va ularni takomillashtirish yo`llari.. ..	15
Birinchi bob yuzasidan qisqacha xulosa.....	23
II BOB. MA`NAVIYAT QALB QUYOSHI BO`LIMINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O`QITISH	
2.1. Boshlang`ich sinf o`qish darslarida o`quvchilarning badiiy asar ustida ishlash va idrok etishdagi pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	25
2.2. Boshlang`ich sinflarning o`qish darslarida hadislarni o`qitishning interfaol usullari.....	35
2.3. Pedagogik tajriba-sinov ishi.....	54
Ikkinchi bob yuzasidan qisqacha xulosa.....	59
XULOSA VA TAVSIYALAR	61
ADABIYOTLAR RO`YXATI	64

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Yangi asr o`qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg`or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining «Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari» asarida O`zbekistonda qabul qilingan o`ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini ta'kidlagan¹. Buni ta'minlash bo`lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yo`llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug`ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo echimini ham muhtaram Prezidentimiz o`zining «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» asarida “...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo`lishi lozim,” deb ta'kidladi².

Yoshlarda insonparvarlikni shakllanishida ulug` allomalarimizning qoldirgan noyob asarlari va ularning o`gitlariga bog`liq bo`lib, bu hususda boy ma'naviy merosimiz asoschilari Yusuf Xos Hojib, Husayn Voiz Koshifiy, Kaykovus, Ibn Sino, Amir Temur, Beruniy, Navoiy Abdulla Avloniy va boshqa allomalarimizning ulkan xizmatlarini o`rganish va uni amalga tatbiq etish bugungi kunning, ayniqsa pedagogika fanining dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Ushbu muammoning ijtimoiy-pedagogik mohiyati H.Abdukarimov, Yu.A.Ahrorov, M.O.Ashurov, L.I.Bushueva, M.M.Lisina, A.V.Mudrik, N.N.Obozov, N.E.Shurkova, Sh.qurbonov, E.Seytxalilov, R.Axliddinov, M.Quronov kabi pedagog olimlar tomonidan o`rganilgan.

¹ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. - Toshkent: O`zbekiston, 2009. – 6.7.

² I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

Ko`tarilgan muammoning psixologik mohiyati ruhshunos olimlar tomonidan kengroq o`rganilgan bo`lib, ayniqsa V.V.Vlasenko, V.M.Karimova, V.N.Myasishev, L.M.Fridman, E.G`oziev va boshqalarning ishlarida yoritilgan.

Muammoning uslubiy jihatlari zamonamiz olimlaridan V.Barshay, M.Bodarenko, T.Bompa, Velitchenko, G.Sh.Karimbekov, G.Shirnova, J.To`laganov va boshqalarining ilmiy izlanishlarida o`z ifodasini topgan.

Ammo ko`rib chiqilgan shlar tahlilida interfaol usullarni o`qish darslari orqali shakllantirish yaxlit ilmiy muammo sifatida ko`rib chiqilmagan. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilab berilgan "mehnat bozori"ga xos bo`lgan kadrlarni yaratishda maktab o`quvchilarida insonparvarlikni shakllantirish bunda o`quvchi hamda tarbiyachi-o`qituvchining vazifasi va o`rni maxsus tadqiq qilinmagan. Ayniqsa, bu muammoning echimida sharqona madaniyatning mohiyati ilmiy asosga qo`yilmagan. Ushbu yo`nalishda yangicha pedagogik texnologiyalar hamda ularning o`ziga xos echimlari topilmagan. O`quvchi erkin shaxs sifatida tarbiya olamida o`zining mavqeini to`liq anglab olish imkoniyatiga qodir emas. Hamon axloqiy tarbiya olamida samimiylik o`rnini soxtalik, ongli intizom o`rnini majburiy itoatkorlik, faollik o`rnini passivlik egallaganlik darajalari ko`zga tashlanmoqda. O`z yechimini kutayotgan bu masalalar muammoning naqadar dolzarbligini belgilaydi. Shundan kelib chiqib, ushbu muammoni qo`yilishi va ilmiy jihatdan hal etilmaganligiga ko`ra bitiruv malakaviy ishi mavzusi «Boshlang`ich sinflarning o`qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish metodikasi va usullari» deb belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Boshlang`ich ta'limning o`qish darslari samaradorligini oshirishda interfaol usullardan foydalanish, uning ijtimoiy-pedagogik, ma'naviy mohiyati va tegishli shart-sharoitlarini asoslab berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti: umumiy o`rta ta'lim maktablarining o`quv-tarbiya jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti: Boshlang'ich sinf o`qish darslarida interfaol metodlar orqali o`quvchilar samaradorligini oshirish vositalari, shakllari, metodlari.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- O`qish darslari samaradorligini oshirish orqali o`quvchilarda insonparvarlikni shakllanishining ilmiy-nazariy va ijtimoiy mohiyatini asoslash.

- O`qish darslari samaradorligini oshirish metodlarining shakllanishining dinamikasi va yaxlit tizimini ishlab chiqish.

- Tajriba-sinov asosida o`qish darslari samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning shakllanishining samarali yo`llarini aniqlash.

- Boshlanich ta'limning o`qish darslari samaradorligini oshirishda interfaol usullarining takomillashuviga oid amaliy tavsiyalar yaratish.

- Bitiruv malakaviy ishi metodlari: mavzuga oid adabiyotlarni o`rganish, tahlil etish va umumlashtirish; anketa; eksperiment; bashorat va tashxis metodi; ahamiyatiga qarab saralash.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asoslarini milliy g`oya va milliy mafkura yo`nalishida ta'limning insonparvar, demokratik tamoyillari negizida shaxs ma'naviyatini erkinlashtirish hamda uning ustivor yo`nalishlarini amalga tatbiq etishga oid nazariy yondashuvlar; O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning barkamol avlod kamoloti to`g`risidagi ilmiy-nazariy qarashlari; "Ta'lim to`g`risida"gi qonun; «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»; Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan daxldor qonunlar; buyuk allomalarning ilmiy-nazariy ta'limotlari.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:

- Jamiyat rivojida interfaol usullar orqali o`qish darslarida samaradorlikni shakllantirishning o`rni aniqlandi;

- Barkamol avlodni tarbiyalashda ularni ma'naviyatini shakllantirishning ahamiyati va mavqei belgilandi;

- Hadislar orqali yoshlarda insonparvarlikni shakllanishining ijtimoiy mohiyati asoslab berildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati:

- Yoshlarda insonga boʻlgan muhabbat va bugungi davr ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari tadqiq etildi;

- Tarbiya jarayonining bosh maqsadi «komil inson tarbiyasi» ekanligiga asoslangan xolda yoshlarda Insonparvarlikni shakllantirishning samarali mezonlari ahloqiy barkamollik, oʻz-oʻzini tarbiyalash va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini amalga tatbiq etish ekanligi oʻrganildi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizdan Termiz Davlat universiteti pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi yoʻnalishi talabalari shuningdek, oʻrta maxsus kasb-hunar ta'limi talabalari kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi yozishda foydalanishlari mumkin.

Tanlangan ob'yektlar va tadqiqot usullari: tanlangan obyektimiz Termiz shahar 15-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchilari. Savol-javob, bahs munozara, anketa so'rovnomasi, interfaol metodlar.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi: Kirish, ikkita bob, oltita band, har bir bob oxirida xulosa, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalangan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I BOB. BOSHLANG`ICH SINFLAR O`QISH DARSLARINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, METODIKASI VA USULLARI

1.1. Boshlang`ich sinf o`qish darslarining maqsad va vazifalari, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati

Boshlang`ich sinflarning o`qish darslari o`z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko`ra ta'lim tizimida alohida o`rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o`qish ta'limisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. o`quvchi matnni to`g`ri, tez, tushunib o`qish, mazmunini o`zlashtirish bilan ilk bor o`qish darslarida yuzlashadi.

O`qish darslari orqali o`quvchilarning Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari bo`yicha o`zlashtirishlari ko`zda tutilgan o`quv-biluv ko`nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo`l ochiladi. Aynan o`qish ta'limida insonning, avvalo, o`zligini, qolaversa olamni anglashga bo`lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda «O`qish kitobi» darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o`rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do`stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo`yicha atroflicha tushunchalar berishga mo`ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O`qish darslari savod o`rgatish davrida o`quvchilarni bo`g`in, so`z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o`qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o`qish texnikasi egallangandan so`ng o`qish muayyan mavzular bo`yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang`ich ta'lim bo`yicha DTS va «Ona tili» o`quv dasturida o`qish ta'limi oldiga qo`yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o`qishni to`g`ri tashkil qilish, o`qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg`or pedagogik texnologiyalardan o`rinli foydalanishga ko`p jihatdan bog`liqdir.

Ma'lumki, sinfda o`qish asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar turadi. O`quvchilarni matn bilan tanishtirish o`qishga tayyorgarlik bosqichidan

boshlanadi.

Tayyorgarlik bosqichi yozuvchilar haqida ma'lumot berish, o`quvchilarni asarda tasvirlanadigan voqea-hodisalarni idrok qilish, asar pafosini his etish, notanish va ko`p ma'noli so`zlar, murakkabroq tarzdagi obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarni o`z ichiga oladi. Agar asar yil fasllari haqida bo`lsa, tabiat qo`yniga sayohat uyushtirish ham sinfda o`qish muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Matn bilan dastlabki tanishuvdan so`ng quyidagicha savollar bilan murojaat qilish darsda o`quvchilarning faolligini oshiradi:

1. Hikoyadagi qaysi epizodni qiziqarli deb o`ylaysiz?

2. Hikoya qahramonlaridan qaysi birining xatti-harakatini ma'qullaysiz? qaysi birining fe'l-atvori, o`zini tutishi sizga yoqmadi?

3. Hayotda shunday kishilarni uchratganmisiz?

Sinfda o`qishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan yana biri tanlab o`qishdir. Masalan: 3-sinfda X. To`xtaboevning «Hassa» hikoyasi bilan tanishish jarayonida qobil boboning savollariga Shavkatning javoblari yoki S. Anorboevning «Bahs» hikoyasidagi bolalarning bahslashishi epizodi yuzasidan o`qituvchi topshirig`iga ko`ra mazkur o`rinlarni tanlab qayta o`qilishi natijasida ushbu asarlarning badiiy estetik qimmatini chuqurroq o`zlashtirishga erishiladi.

«O`qish kitobi» darsliklaridan turli mavzudagi asarlar o`rin olgan. Vatanparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabilar o`qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo`lib, 2-sinfda «Ona yurtim-oltin beshigim» bo`limiga kiritilgan «O`zbekistonim» (H. Imonberdiev), «Istiqlol» (J. Jabborov), «O`lka» (E. Vohidov), «Yur tog`larga» (U. Nosir), 3-sinfda «Ona bitta, Vatan yagona» bo`limidagi «Vatanni suymak» (A. Avloniy), «Vatan mo`tabardir» (X. Davron), «Bilib qo`yki, seni Vatan kutadi» (Tohir Malik), 4-sinfda «O`zbekiston - Vatanim manim» bo`limidagi «Serquyosh o`lka» (Z. Diyor), «Iqboli buyuksan» (A. Oripov), «Toshkentnoma» (M. Shayxzoda) kabi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi.

Boshlang`ich sinflarning o`qish darslarida o`rganiladigan asarlarning mavzu

doirasi ancha keng bo`lib, ona tabiat, yil fasllari, xalq og`zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o`laroq, boshlang`ich sinflarning o`qish darslarida o`quvchilarning o`qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy - estetik tarbiya bilan chambarchas bog`lab olib boriladi.

Shunga ko`ra o`qish darslarining etakchi hususiyati o`quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O`qish ta'limi bo`yicha o`quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo`lmaydi. Negaki matn tagzaminidagi tarbiyaviy g`oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda , har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab etilganda o`quvchi diqqatini o`ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o`zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Asar tahlili jarayonida o`qituvchi savollariga o`quvchilarning o`z so`zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqea - hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to`g`ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo`lmasdan, qat'iy maqsad asosida izchil berilishi o`quvchilarning o`qilgan matn mohiyatini chuqur anglab etishlariga imkon yaratadi. Negaki har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi.

Ta'kidlash joizki, o`quvchilarning o`zlarini ham savol tuzishga o`rgatish lozim. K. D. Ushinskiy qayd etganidek, to`g`ri qo`yilgan masalaning o`zi yarim javobdir. Matn yuzasidan savol tuzishda o`quvchining dars mavzusi bilan bog`liq jihatlarga e'tibor berishi asarda tasvirlangan voqea-hodisalar o`rtasidagi sababiy bog`lanishlarni bilib olishga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo`l ochadi. Shuning

uchun ham matn yuzasidan savol tuzish o`quvchini ongli va tushunib o`qishga yo`llaydi. Uning o`ziga xos xususiyatini o`quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish orqali dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to`g`ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi.

O`qish darslari uchun tanlangan mavzular o`quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo`yicha ham bilim va tarbiya berishni ko`zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko`zlangan maqsad o`zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog`liq tuyg`ularini uyg`otishdir.

Tabiatga oid mavzular yordamida o`quvchilar tabiatdagi o`zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Ular o`quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to`g`ri munosabatda bo`lishga o`rgatadi.

«O`qish kitobi» darsliklaridagi materiallar sinfdan sinfga o`tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan.

1-sinfda o`rgatiladigan «Ajdodlarimiz-faxrimiz», «Ilm-aql chirog`i», «Zumrad bahor», «Kumush qish» kabi mavzular 2-4 sinflarda ham davom ettiriladi. Natijada o`quvchilarning oldingi bilimlari to`ldiriladi va boyitiladi.

Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o`quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o`tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug` siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to`g`risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir.

Bu xildagi asarlar o`quvchilarni faqat o`tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg`usi shu tariqa shakllanadi.

Vatanimiz o`tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o`quvchilar o`tmish bilan bugungi kunni taqqoslash

imkoniga ega bo`ladilar. Jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo`lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada ayniqsa milliy istiqlol bilan bog`liq H. Imonberdievning «O`zbekistonim», J. Jabborovning «Istiqlol» (2-sinf), A. Rustamovning «Bayroq nima?», A. Obidjonning «O`ktam avlod» (3-sinf), S. Barnoevning «Mangulikka tatigulik kun», Ullibibining «E'zoz» (4-sinf) mavzusidagi asarlari yaqindan yordam beradi.

Badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutiladi. Masalan, tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag`riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o`rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

Umuman «O`qish kitobi» darsliklaridagi barcha mavzular o`quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug`atini boyitishga, og`zaki va yozma nutqini to`g`ri shakllantirish, nutq madaniyatini o`stirishga ham qaratiladi.

O`quvchilar darsliklar yordamida o`zlashtiriladigan bilim, ko`nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo`lishini tushunib etishlariga erishish o`qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

O`qish darslari oldiga qo`yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O`quvchilarda yaxshi o`qish sifatlari: to`g`ri, tez, ongli, ifodali o`qish malakalarini shakllantirish.

2. O`quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o`rgatish, kitobga muhabbat uyg`otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko`tarish.

3. O`quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O`quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan etuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O`quvchilarning bog`lanishli nutqini va adabiy estetik tafakkurini o`stirish.

6. O`quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

1.2. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida qo'llaniladigan metod va usullar

«Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi» da ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

Ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

«Metod» atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, muayan maqsadga erishish, borliqni amaliy va nazariy o'zlashtirish usullari majmuidir. Binobarin fanning o'zi kabi o'qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug'iladi: Izohli o'qish nima?

Ko`rinadiki, ijodiy o`qish izohli o`qishdan farqli o`laroq, to`g`ridan - to`g`ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Masalan 4-sinfda «Salomlashish odobi » asarini ijodiy o`qish metodi asosida o`rganish jarayonida matn mazmuni va yozuvchi g`oyaviy niyatidan kelib chiqib, ma`naviy boylikning birinchi belgisi salomlashish odobidir. Vatanimiz hududlaridagi aholining yashash tarzi bilan bog`liq milliy hususiyatlar haqida ham atroflicha tushuncha beriladi.

2-sinfda «O`tinchi yigit», 3-sinfda O`tkir Hoshimovning «Xazonchinak», 4-sinfda S. Anorboevning «qo`rqoq» asarlarini ham ijodiy o`qish metodi asosida o`qitish ijobiy samaralar beradi.

Ifodali o`qish. Boshlang`ich ta'lim tizimida mantiqiy o`qish (matnni to`g`ri, tushunib, tez (me'yorida) o`qish) va adabiy o`qish mukammal o`zlashtirilganidan so`ng ifodali o`qishga o`tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o`qishni ham o`z ichiga oladi. Ifodali o`qishning muvaffaqiyati o`quvchilarning asar mazmuni, g`oyaviy-badiiy hususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo`lishi bilan bog`liq.

Ohang va intonasiya she'riy asarlarni ifodali o`qishda qay darajada muhim bo`lsa, nasriy asarlarni o`qishda ham muhim talablardan biridir.

Nasriy asarlarni ifodali o`qishdan oldin unda qanday g`oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, 4-sinfda Yusuf Xos Hojibning «Odamdan nima qoladi » hikoyasini ifodali o`qishdan oldin o`quvchilarga qanday odamlar yaxshi nom qoldirishini, qanday odamlardan yomon nom qoldirishini, qanday kishilar maqtov olishi to`g`risida tushuncha beriladi.

Ifodali o`qish oldiga qo`yilgan bu talab M. Abdurashidxonovning «Har kim ekanin o`rar», Sh. Sa'dullaning «Laqma it», A. Oripovning «Dehqonbobo va o`n uch bolakay qissasi» kabi she'riy hikoyalarini o`qishga ham xosdir.

Badiiy o`qish. Badiiy o`qish ifodali o`qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda so`z san'atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o`quvchidan asar ruhiga batamom kirishni, san'atkorona o`qishni talab etadi. Badiiy o`qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to`la anglab etilgandagina ta'sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o`qishga tayyorgarlik ko`rishda

aktyorlarning audio-video tasmlarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqea va tafsilotlar asosida o`quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo`llaniladigan usuldir.

O`qish darslarida reproduktiv metoddan ham foydalaniladi. Masalan, o`qituvchi dastlabki darslarda o`zi asar matnini qismlarga bo`ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo`lgan muhim fikriga o`quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko`rsatadi, o`quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma'noni ochib, o`quvchilarga ko`maklashadi. Bularning bari o`quvchilar uchun bir ko`rsatma vazifasini o`taydi. Shundan so`ng o`quvchilar o`qituvchining ko`rsatmalari yordamida yuqorida ko`rsatib o`tilgan vazifalarni o`zlari mustaqil ravishda bajaradilar.

Yuqorida ta'kidlangan metodlardan tashqari, boshlang`ich sinf o`qish darslarida ilg`or pedagogik texnologiya usullaridan «Aqliy hujum», «Tarmoqlar», «Guruhlar bilan ishlash» kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta'kidlab o`tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo`llash o`qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

1.3. Boshlang`ich sinflarda o`qish malakalarining sifatlari va ularni takomillashtirish yo`llari

Dastur talablarini to`liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda o`qish ko`nikmalarini to`g`ri va puxta egallash va takomillashtirib borish zarur. O`qish ko`nikmalari savod o`rgatishg jarayonida shakllanadi, o`qitishning keyingi bosqichlarida takomillashadi.

O`qish malakalarining sifatlari badiiy asar matnini to`g`ri, tez, ongli va ifodali o`qish kiradi. O`qish darslarida o`quvchilarning o`qish malakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi. O`qish malakasining sifatlari o`zaro bog`liq bo`lib, ularning asosiysi ongli o`qish hisoblanadi: o`quvchi matnni tez va to`g`ri

o`qisa-yu, anglab o`kimasa yoki uning tez o`qishi natijasida boshqalar matn mazmunini tushunmasa, to`g`ri o`qisa-yu, o`ta sekin o`qisa, nutq birliklari orasida pauzalarga e'tibor bermasa, matnda ifoda etilayotgan fikr tushunilmaydi. Muayyan tezlikda va to`g`ri o`qish ongli o`qishga xizmat qiladi; to`g`ri, tez va ongli o`qish esa ifodali o`qishning asosi hisoblanadi.

O`qish malakalarini egallash maktabda o`qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o`zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. O`qish faoliyatning asosiy turi bo`lib, o`quvchilarni g`oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o`qish malakalarini o`stirish va takomillashtirish ustida sistematik va maqsadga muvofiq ishlashni talab qiladi.

O`qish malakasini egallash ancha murakkab bo`lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. Psixolog T. G. Egorov o`zining «Ocherki psixologii obucheniya detey chteniyu» nomli asarida o`qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: analitik bosqich, sintetik bosqich va avtomatlashgan bosqich. Analitik bosqich savod o`rgatish davriga to`g`ri keladi, bunda so`zni bo`g`in-harf tomonidan tahlil qilish va bo`g`inlab o`qish malakasi shakllantiriladi. Sintetik bosqich uchun so`zni sidiq`a o`qish xarakterlidir; bunda so`zni ko`rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so`z ma'nosini anglash bilan asosan mos keladi. O`qish so`z ma'nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O`quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o`tadilar. Bundan keyingi yillarda o`qish avtomatlasha boradi.

O`qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o`qish malakalarini takomillashtirishga yo`naltirilgan bo`lsin.

To`g`ri o`qish deganda xato qilmasdan, yanglishmasdan o`qish tushuniladi, ya'ni to`g`ri o`qish so`zning tovush-harf tarkibini, grammatik formalarni buzmasdan, so`zdagi tovush yoki bo`g`inni tushirib qoldirmay, oshiqchasini qo`shmay, harflar o`rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so`zga urg`uni to`g`ri qo`yib o`qish hisoblanadi. M. Odilova va T. Ashrapovalar «Adabiy talaffuz normalariga qo`yilgan barcha talablar to`g`ri o`qish ko`nikmasiga ham

taalluqlidir», - deb ta'kidlaydilar. Rus metodisti Yakovleva to'g'ri o'qishga quyidagicha ta'rif bergan: «To'g'ri o'qish - bu materialni tovush tomondan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirishdir». Demak, to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan adabiy-orfoepik me'yorlar asosida o'qishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok etish, talaffuz qilish va matn mazmunini tushunish o'rtasida puxta sintez yo'q bo'lgani uchun ular o'qishda xatoga yo'l qo'yadilar. Bu esa matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi.

To'g'ri o'qish so'zning uzun-qisqaligiga, o'quvchining so'z boyligiga, ya'ni so'zning leksik ma'nosini qanchalik bilishiga hamda so'zning bo'g'in va morfemik tarkibiga bog'liq. O'quvchilar ko'pincha quyidagi sabablarga ko'ra xatoga yo'l qo'yadilar:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta sintez bo'lmagani uchun, ya'ni bola so'zning oldin tovush tomonini ko'radi, uni talaffuz qilishga oshiqadi. So'zning ma'nosini esa e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'zning bo'g'in tuzilishi murakkabligi tufayli. So'z ko'p bo'g'inli bo'lsa, bola uni oldin eshitmagan bo'lsa xatoga yo'l qo'yadi.

3 So'zning ma'nosini bitmaslik tufayli xatoga yo'l qo'yadi.

4. Tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadi.

5. To'g'ri o'qish yoryog'likka va yorug'likning tushishiga ham bog'liq.

6. Undosh tovush so'zning o'rtasida va oxirida kelgan yopiq bo'g'inli so'zlarni o'qishda qiynaladilar.

Xato o'qishning oldini olish uchun quyidagilar e'tiborga olinadi:

1. Matnni o'qitishdan oldin undagi o'qilishi qiyin so'z, birikma va gaplarni aniqlash va ular ustida ishlash usullarini belgilab olish. Tuzilishi murakkab so'zlarni bo'g'inlab o'qilishini mashq qildirish.

2. Matnni o'qishdan oldin uning mazmunini tushunishni qiyinlashtiradigan so'zlarning lug'aviy ma'nosini tushuntirish. So'z ma'nosini izohlash usullarini aniqlash.

3. Vazifalarni aniq va tushunarli qilib berish

4. Matnni diqqat-e'tibor bilan o`qishlari uchun sharoit yaratish.

5. Oldin ichda o`qitish, so`ng ovoz chiqarib o`qitish.

6. O`qitishda o`quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ya'ni matnnin oson, o`rtacha qiyinlikda va qiyin o`qiladigan o`rinlarini belgilab olib unga kuchi etadigan o`quvchilarga oldindan taqsimlab olish.

7. O`quvchilarning o`qishini muntazam tekshirib turish.

8. Xatoning xarakteriga qarab, uni metodik tomondan to`g`ri tuzatish yo`lini aniqlash.

9. O`quvchilarni xato qilish mumkin bo`lgan o`rindan ogohlantirib turish.

10. Xat cho`pdan foydalanish.

11. Xato o`qish o`quvchining shaxsiy ko`ruv sezgisiga ham bog`liq bo`ladi.

O`qituvchi tuzilishi murakkab so`zlarni oldindan doskaga yoki kartonga bo`g`inlarga bo`lib yozib qo`yib, o`quvchilarga xor bo`lib o`qitilishi yaxshi natija beradi.

O`quvchilar yo`l qo`ygan xato ikki xil yo`l bilan tuzatiladi: 1) O`quvchi so`z oxiridagi qo`shimchani noto`g`ri o`qisa, o`quvchini o`qishdanto`xtatmasdan xatoni to`g`rilash mumkin; 2) xato o`qish bilan gaplarning mazmuni buzilsa, qayta o`qitish usulidan foydalaniladi. Bunda o`quvchiga o`qigan matni yuzasidan savol berilsa, o`quvchi e'tiborli bo`lib qayta o`qiydi.

Tez o`qish. Tez o`qish normal tezlikda o`lib, o`qish sur'ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O`qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o`suvi kerak. O`qilayotgan asar mazmunini o`zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o`qish tez o`qish deyiladi.

O`qish sifatlarini yaxshi o`zlashtirgan holda o`quvchilarning o`qish sur'ati bir-biridan farq qiladi. Bu dastur talablarini bajarmadi, degan gap emas. Og`zaki nutq tempiga to`g`ri keladigan o`qish sur'ati normal tezlik hisoblanadi. Chunki o`ta tez ham, o`ta sekin o`qish ham matn mazmunini o`zlashtirishni qiyinlashtiradi.

O`qish tezligi bir daqiqada o`qiladigan so`zlar soni bilan belgilanadi. 2005 yilda e'lon qilingan o`qish dasturida 1- sinfning 2- yarim yilligida o`qish sur'ati 20-

25 soʻz (notanish matnni oʻqish tezligi ham 20-25 soʻz); oʻquv yili oxirida 25-30 soʻz; 2- sinfnig 1- yarim yilligida matnni oʻqish tezligi 30-35 soʻ; 2-yarim yilligida 40-50 soʻz; 3- sinfnig 1- yarim yilligida 60-70 soʻz; 2- yarim yilligida 70-80 soʻz; 4- sinfnig 1- yarim yilligidja ichda ovozsiz 110-130 soʻz, ovoqli oʻqishda 90-100 soʻz.

Tajribalar shuni koʻrsatadiki, bir daqiqada bola 250 soʻzli matnni oʻqisa, undagi 200 ta soʻzni eslab qolar ekan. Agar harflab, boʻgʻinlab oʻqisa, uning diqqat markazida soʻz emas, boʻgʻin boʻladi. Natijada u soʻzlarni eslab qola olmaydi. (J.gʻ. Yoʻldoshev. 1992 yil «Oʻqituvchilar uyidagi ijodkor oʻqituvchilarning 1- anjumanidagi nutqidan).

Bu 4- sinf oʻquvchilarining oʻqish tezligiga tatbiq etilsa, 125 soʻzdan 100 soʻzni eslab qoladi. Bu esa yuqori koʻrsatkichlarga erishish imkonini beradi. 4- sinfda xatto bir daqiqada 170-180 ta soʻz oʻqiydigan oʻquvchilar ham bor.

Oʻqish tezligi toʻrt yil davomida toʻgʻri va ongli oʻqish bilan bogʻliq holda asta ortib boradi. Oʻqish tezligini tekshirganda oʻqituvchi oʻqiladigan materialning xarakterini, yaʼni gʻoyaviy mavzuviy murakkabligini, soʻz va gaplarning tuzilishini, ularning bolalar nutqida qay darajada ishlatilishini, oʻqishning toʻgʻri va ongli boʻlishini hisobga oladi. Oʻquvchilarning oʻqish tezligi har xil boʻladi, albatta. Oʻqituvchining vazifasi barcha oʻquvchilarning oʻqish tezligini, iloji boricha bir xillikka keltirishdan iborat. Bunga asosan matnni ovoz chiqarib oʻqishni mashq qilish bilan erishiladi.

Ongli oʻqish. Ongli oʻqish yaxshi oʻqishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli oʻqilgan matnning aniq mazmunini, asarning gʻoyaviy yoʻnalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib oʻqish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga oʻz munosabatini ifodalay olishdir. Ongli oʻqish oʻz navbatida, oʻquvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, soʻzning leksik maʼnosini, gapda soʻzlarning bogʻlanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bogʻliq. Hozirda ongli oʻqish atamasi adabiyotlarda va maktabtajribasida ikki maʼnoda: birinchidan, oʻqish jarayonini egallashga nisbatan oʻqish texnikasi maʼnosida, ikkinchidan, keng maʼnodagi oʻqishga nisbatan oʻqish sifatlaridan biri

ma'nosida qo'llanadi.

Matnni ongli o`qish uchun o`quvchilar o`qish sifatlaridan to`g`ri, me'yorida o`qishni egallagan bo`lishlari va o`qish jarayonida qiynalmasligi talab etiladi. O`quvchilar matnni ongli o`qishlari uchun matn mazmuni va badiiy vositalari jihatidan tahlil qilinadi.

Ongli o`qishning muhim sharti asar qurilishi va mazmunini tushunish hisoblanadi. O`qituvchi ongli o`qishni matnni ifodali o`qishga (agar ovoz chiqarib o`qilsa) va asar mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning to`g`riligiga qarab baholaydi. Ongli o`qish va ifodali o`qish bir-birini taqozo qiladi, ammo bir-biriga aynan o`xshamaydi.

Ifodali o`qish intonasiya – ohang yordamida asarning g`oyasi va jozibasini to`g`ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. "Ifodali o`qish adabiyotni konkret va ko`rgazmali o`qitishning dastlabki va asosiy formasidir", deb ta'kidlaydi metodist olim M.A.Ribnikova.¹ Demak, "Ifodali o`qishning asarning mazmunini va emostionalligini intonasiya orqali o`quvchilarga ko`rgazmali qilib ko`rsatishdir. Ifodali o`qishning asosiy tamoyili o`qiladigan asar g`oyasi va badiiy qimmatini chuqur tushuntirishdir"

2. Ohang og`zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg`u, nutq temp iva ritmi, pauza , ovozning past-balandligining yig`indisidir. Bu elementlar bir-biriga ta'sir etadi va hammasi birgalikda asarning mazmunini, g`oyasini, qahramonlarning turli kayfiyatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.

O`quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonidan nafasni to`g`ri olish va to`g`ri taqsimlay bilish.

2. Har bir tovushning to`g`ri artikulyastiyasi va aniq dikstiya(burro gapirish) malakasini egallash.

3. Adabiy talaffuz me'yorlarini egallash.

Bu shartlar faqat ifodali o`qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya'ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. O`quvchining har qanday og`zaki hikoyasi ifodali bo`lishi zarur.

Ifodali o`qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog`lanadi. Shuning uchun o`qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o`z nafasini boshqara olish va ovozdan to`g`ri foydalanishga o`rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O`quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o`qish(gapirish)ga, nutqda tez, o`rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg`uni ifodalashga o`rganadilar. Ifodali o`qishga o`rgatishda o`quvchilar pauza va logik urg`u bilan ham tanishtiriladi.

Ifodali o`qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo`linadi:

1. Asarning aniq mazmunini tushunish , unda qatnashgan shaxslarning xatti-harakatini tahlil qilish, asarning g`oyasini belgilash, ya'ni asarning g`oyaviy mavzuviy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish.

2. Matnning qayerida pauza qilishni, mantiqiy urg`uning o`rnini, o`qish tempini belgilab olish.

3. O`qishni mashq qilish. Avtor fikrini, uning tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan bera olish uchun matnni qayta o`qish. Asarning mazmuni va g`oyaviy yo`nalishini tahlil qilish ifodali o`qishga o`rgatish bilan bog`lab olib boriladi. Ifodali o`qishga o`rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o`z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O`quvchilarda ifodali o`qish malakasini shakllantirish uchun asarni o`qituvchining ifodali o`qishi muhim ahamiyatga ega.

O`qish turlari

Boshlang`ich ta'limda o`qishning uch turidan foydalaniladi:

1. Ovozli o`qish.
2. Ichda o`qish.
3. Shivirlab o`qish

Ovozli o`qish ovozga asoslangan o`qish bo`lab, undan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi.

Ovozli o`qishning yakka, jo`r va rollarga bo`lib o`qish usullari mavjud. Yod aytish ham ovozli o`qishning bir

shaklidir.

Ichda o`qish ham tovushga asoslangan , lekin unda ovozsiz o`qiladi.

Shivirlab o`qish yarim ovoz bilan o`qishdir. Malakali kitobxon o`qishning har uch turini bilishi zarur. Ovozli o`qishning ham, ovozsiz ichda o`qishning ham, shivirlab o`qishning ham o`z qo`llanish o`rni va afzalliklari hamda kamchiliklari bor. Masalan, 2- sinf o`quvchilari ichda o`qiganda kam so`z o`qiydi, so`zning ma'nolarini tushunmay qoladi, o`qiganlarining mazmunini to`liq o`zlashtira olmaydilar. Psixologik izlanishlar o`qishni endi o`rganayotgan o`quvchilar o`qilayotgan matnni tushunib borishlari uchun eshitish sezgisiga ham sezganliklarini ko`rsatganlar. Ikkinchidan, ikkinchi sinf o`quvchilarida o`qish ko`nikmalari yaxshi shakllanmagani uchun ichda o`qish jarayonida ayrim so`zlarni noto`g`ri o`qish natijasida uning ma'nosini tushunmaganlar. Shularni nazarda tutgan holda 1- 2- sinflar ovozli va shivirlab o`qishdan foydalaniladi. 3-4- sinflarda ovozli o`qish bilan birga ichda o`qishdan ham foydalaniladi. 3-4- sinflar ichda o`qish ancha samarali bo`ladi. Lekin bu sinflarda ichda o`qish mexanik o`qishga aylanmasligi kerak. Ichda o`qish biror maqsadga yo`naltirilishi kerak, ya'ni turli topshiriqlar asosida ichda o`qitilishi lozim. Masalan, «She'rni ichingizda o`qib, ifodali o`qishga tayyorlaning.»» Hikoyani ichingizda o`qing , ma'nosi tushunarsiz so`zlarni lug`at daftaringizga yozing.» , «Lug`atdan foydalanib, ularning ma'nosini izohlashga harakat qiling».

-Hikoyani ichingizda o`qib, uni qismlarga bo`ling.

-Ichingizda o`qib, ovoz chiqarib to`g`ri o`qishga tayyorlaning.

-Ichingizda o`qing. Tabiatning ko`rinishi tasvirlangan o`rinni toping.

Bu topshiriqlar sinfdan sinfga o`tgan sari murakkablashib boradi. Bunda o`quvchilarning asarni qanchalik idrok etganliklari tekshirilib borilishi zarur. Ichda o`qish quyidagi afzalliklarga ega:

1. Bir vaqtning o`zida butun sinf o`quvchilari o`qiydi.
2. O`quvchilarda asar matni ustida mustaqil ishlash ko`nikmalari takomillashadi.
3. O`qituvchi har bir o`quvchining mustaqil ishlash jarayonida o`zlashtirish

darajasini aniqlaydi.

4. Ichda o`qishda ongli o`qishga talab , e'tibor kuchayadi.

Ichda o`qishda o`qituvchi o`quvchilar o`qishidagi kamchiliklarni aniqlay olmaydi. Bu undan foydalanishdagi kamchilikdir.

Ovozli o`qishning afzalliklari quyidagilar:

1. O`qituvchi o`quvchilarning xato va kamchiliklarini , o`qish ko`nikmalarini aniqlay oladi.

2. Kichik yoshdagi o`quvchilar ovoz chiqarib o`qisalar, matn mazmunini tez tushunib oladilar.

3. Ovozli o`qishdan kitobxon estetik zavq oladi.

4. Ovozli o`qishda ifodalilikka kata e'tibor beriladi.

5. Ovozli o`qish o`quvchilar lug`atini boyitish va nutqini o`stirishda kata ahamiyatga ega.

Maktabda o`qishning bu uch turi navbatma navbat almashtirib turiladi. 1-2-sinflarda ovozli va pichirlab o`qishdan ichga o`qishga o`tilsa, 3-4- sinflarda ichdan o`qishdan ovozli o`qishga o`tiladi. 3-4- sinflarda o`qishning turlaridan foydalanishda chegara qo`yilmaydi. Boshlang`ich sinflarda o`qishning hamma turiga bir xil talab qo`yiladi, ya'ni o`qish to`g`ri bo`lishi, tez, ongli va ifodali bo`lishi zarur.

Birinchi bob yuzasidan qisqacha xulosa

Ushbu bobda boshlang`ich sinflar o`qish darslarining o`ziga xos xususiyatlari, metodikasi va usullari yuzasidan tadqiqot olib borilib, undan shu xulosaga kelindi. Boshlang`ich sinflar o`qish darslarining o`ziga xos birqancha taxususiyatlari o`zaro qiyoslash orqali bir-biridan farqli tomonlarini aniqlash, o`qish darslarining olib borilish usullariga ko`ra, ma'lum bir omillarini aniqlash, va bugungi kundagi ahamiyatini aniqlash, Boshlang`ich sinflar o`qish darslarining o`ziga xos xususiyatlari, metodikasi va usullari tadqiqida, o`qish darslarida qo`llanadigan metod va usullariga ham to`xtalib o`tishni, ularning o`qish darslarida qo`llanadigan metod va usullariga ham izoh berib o`tishni lozim topdik.

Tadqiqotda o`qish malakalarining sifatlariga badiiy asar matnini to`g`ri, tez, ongli va ifodali o`qishda yaxshi samaraga erishish metod va usullari yoritib berishga harakat qildik. Ushbu bobning ikkinchi qismida o`qish darslarining maqsad va vazifalari, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati yoritib berishda, ilg`or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o`qituvchi va o`quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab olish inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo`lgan o`qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshirildi. Lekin o`qishga o`rgatish yo`l-yo`riqlarini o`qish metodikasi ishlab chiqadi. O`qish metodikasi kichik yoshdagi o`quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi. Ushbu bobning uchinchi qismida o`qish malakalarining sifatleri va ularni takomillashtirish yo`llarini yoritib berishga harakat qildik. O`qish malakalarini egallash maktabda o`qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o`zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. O`qish faoliyatning asosiy turi bo`lib, o`quvchilarni g`oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o`qish malakalarini o`stirish va takomillashtirish ustida sistematik va maqsadga muvofiq ishlashni talab qiladi.

Xulosa so`ngida shuni aytib o`tish mumkinki, boshlang`ich sinflar o`qish darslarining o`ziga xos xususiyatlari, metodikasi va usullari, o`qish darslarini takomillashtirishga xizmat qilib, yaxshi samara beradi.

II BOB. MA'NAVIYAT QALB QUYOSHI BO'LIMINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH

2.1. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning badiiy asar ustida ishlash va idrok etishdagi pedagogik-psixologik xususiyatlari

Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlar hisobga olinadi. Psixolog olimlarning tekshirishlaridan ma'lum bo'lishicha, asarni idrok qilishga, bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga, uni emostional - estetik his etish ham kiradi. Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushunishning o'zigina etarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo'lib, asarga unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o'z ichiga oladi. Psixologik tekshirishlar natijasida kichik yoshdagi o'quvchilarning adabiy qahramonlarni idrok etishi va baholashidagi psixologik xususiyatlari o'rganilgan va ular adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo'lishlari aniqlangan:

1. Adabiy qahramonga emostional munosabat;
2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o'quvchilar o'z shaxsiy va axloqiy tushunchalaridan foydalanadilar. Bunday axloqiy tushunchalar kichik yoshdagi o'quvchilarda chegaralangan bo'ladi, albatta. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, yaxshilik tushunchalarini ko'p ishlatadilar. qahramonlarning boshqa sifatlarini tasvirlash uchun ularning so'z boyliklari etishmaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar bilan tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy, intellektual, emostional sifatlarini tasvirlovchi so'zlarni kirita borishdan iborat. Bu adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yoritish shartlaridan biri hisoblanadi.

O'qish darslarida o'qilayotgan asarning ongli o'zlashtirilishini ta'minlashda

o`quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Badiiy asar ustida ishlash va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o`qituvchi badiiy asarning san'at asari sifatida o`ziga xos xususiyatlari va o`quvchilarning tayyorgarlik darajasini nazarda tutadi.

Badiiy asarda barcha qismlar (g`oyaviy asos, kompozitsiya, syujet, tasviriy vositalar) o`zaro bog`liq bo`ladi. Syujet rivoji asosida asar qahramonlarining yangi-yangi qirralari ochila boradi. Bu xususiyatlar asar ustida ishlashda uni yaxlit o`qish va idrok etishni talab etadi.

O`quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o`rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o`stirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg`otadi. Asar tahlili o`qituvchidan o`quvchilar faoliyatini ma'lum maqsadga yo`naltirishni taqozo qiladi.

«Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o`quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. O`quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g`oya, muammolarni to`liq tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo`lmaydi».

O`quvchi asarning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma'noni chuqur o`rganishga yordam beradi.

O`qituvchi badiiy asar ustida ishlashda quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

1. Asar ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olishi.
2. Asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olishi.
3. Har bir asar tahlili uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi.
4. Asarni qanday metodlar asosida o`rganishni aniqlashi.
5. O`quvchilar egallaydigan bilim, ko`nikma va malakalar doirasini belgilab olishi.

Boshlang`ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash uch asosiy bosqichga bo`linadi:

Birinchi bosqich (birinchi sintez). Bu bosqichning asosiy vazifasi matni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni va tasviriy ifoda vositalari bilan tanishtirish dan iborat.

Ikkinchi bosqich (analiz). Bu bosqichning vazifasi va ish mazmuni voqealar rivojining bog`lanishini belgilash, ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvori va ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash (nega shunday qildi va bu uning qanday xususiyatini ochadi), asar kompozistiyasini ochish (tugun, kulminastion nuqta, echim), asarning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholash (muallif nimani tasvirlagani, qanday tasvirlagani, nima uchun u yoki bu dalilni tanlagani)dan iborat.

Uchinchi bosqich (ikkinchi sintez). Bu bosqichning ish mazmuni ishtirok etuvchi shaxslarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni taqqoslash va baholash, asarning g`oyasini aniqlash, badiiy asarni hayotni bilish manbai va san'at asari sifatida baholash (qanday ma'lumotlarga ega bo`ldik, asar nimaga o`rgatadi, muallif o`z fikri va taassurotlarini qanday qilib aniq, ravshan va ta'sirli tarzda etkazadi va hokazo)dan iboratdir.

4-sinf “ O`qish kitobi “ darsligida 14 ta bo`lim berilgan: “ Istiqlolim – istiqbolim “,”O`zbekistonim – Vatanim manim “,” Oltin kuz “,”Ma`naviyat – qalb quyoshi “,” Xalq og`zaki ijodi “,” Kumush qish “,” Vatanim o`tmishidan “,” Nima yaxshi-yu, nima yomon? “,” Hayvonot olamida “,” Zumrad bahor “,” Yashasin tinchlik, bor bo`lsin do`stlik “,” Ajdodlarimiz- faxrimiz “,”Jahon bolalar adabiyoti”,” Yoz-o`tadi soz “ bo`limlari.

“Ma`naviyat- qalb quyoshi “ bo`limi materiallarini o`rganishda o`quvchilarning ma`naviy axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash katta ahamiyat kasb etadi.

Bo`limning ‘ Salomlashish odobi” (H. V. Koshifiy) mavzusi boshlanishining o`ziyoq o`quvchilarning ruhiyatiga ma`naviy ozuqa berishga qaratilganligiga misoldir. Bo`limdagi matnlar bilan tanishish jarayonida o`quvchilar insondan faqat

yaxshi nom qolishi, chaqimchilik, xiyonatdan hazar qilish, non-tuz haqiga xiyonat qilmaslik kerakligini o'rganadilar, " Hadislardan namunalar" mavzusida oq-u qorani ajratishga, limning afzalligini, ilmli xor bo'lmasligi haqidagi bilimlarni o'rganib boradilar. Bu bo'lim materiallarini o'rganishda o'quvchilarning o'tmish ajdodlarimizning bizlarga qoldirgan pand-nasihatga yo'g'rilgan asarlariga sayohat qiladilar hamda ularning odob-axloq haqidagi oldingi sinflarda olgan bilim va tushunchalariga asoslangan holda bilim beriladi.

O'quvchilar " Ma'naviyat- qalb quyoshi " degan mavzudagi ilk darslardayoq o'qituvchi o'quvchilar ongli va shuuriga salomlashish odobi, jamoat joylarida o'zini tutish, ochiq chehralik bilan muomala qilish, kattalarga hurmat-izzat ko'rstish haqida bilim berishni maqsad qilib oladi.

Bo'lim materiallarini o'quvchi o'rganib borar ekan, ma'naviyat-insonning fe'l-atvori, axloq- odobini, madaniyati va dunyoqarashini anglatadigan tushuncha ekanligini his qiladi. Xushmuomala, keng tushunchali, boshqalarga faqat yaxshilik qiluvchi, mehnatsevar, fidoyi kishilarning ma'naviyat dunyosi boy deb ulug'lanadi. Aksincha, faqt o'zini o'ylaydigan xudbin, baxil, ta'magir va yalqov kishilarga ma'naviy dunyosi past, qashshoq deyilishi haqidagi bir qator fikrlar bilan yaqindan tanishib boradilar.

Mavzusi: Salomlashish odobi (4 - sinf O`qish kitobi)

Darsning ta'limiy maqsadi: Bolalarni Husayn Voiz Koshifiyning "Salomlashish odobi" asari orqali ijtimoiy tushunchalarini rivojlantirish. O'quvchilarni o'zbekona salomlashish qoidalari bilan tanishtirish va unga rioya qilishga odatlantirish.

Darsning tarbiyaviy ahamiyati: O'quvchilarga donli ekinlarning xilm-xilligi, ahamiyatini tushuntirish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish. Ekologik, iqtisodiy, ahloqiy ta'lim-tarbiya berish.

Darsning tarbiyaviy ahamiyati: O'quvchilarga donli ekinlarning xilm-xilligi, ahamiyatini tushuntirish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini

kengaytirish. Ekologik, iqtisodiy, ahloqiy ta'lim-tarbiya berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Tabiyatshunoslikni o'qitish o'quv fani bilan o'zaro bog'lab tushuntirish orqali o'quvchilarda darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini, nutuq va muloqat madaniyatini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Darsning borishi: Tashkiliy qismni.

O'tilgan dars “Yo'lakdagi uchrashuv” usuli bilan so'raladi. Bunda sinfning barcha o'quvchilari ikki qator bo'lib saflanadilar. O'qituvchining topshirig'iga ko'ra birinchi qatordagilar ikkinchi qatordagilarga bittadan savol beradilar, ikkinchi qatordagilar shu savolga javob beradilar. Keyin savollarga javob berayotgan guruh a'zolari keyingi o'quvchi to'g'risiga o'tib turadilar. Shu tariqa davom etaveradi. Savollar ham, javoblar ham mayin ovozda beriladi, chunki yon atrofdagi o'quvchilarga xalaqit bermasligi kerak. O'qituvchi esa savol-javoblarni kuzatib boradi va baholaydi. Bu usulning samarali tomoni shundaki ma'lum bir sabablarga ko'ra darsda qatnashmagan o'quvchi o'tilgan mavzuni 100% bolmasa ham 75-80% o'zlashtirib oladi. Sababi boshlang'ich sinf mavzulari qisqaroq, soddaroq, kichik hajmda berilgani uchun savollar ham, javoblar ham bir necha marta takrorlanishi mumkin.

Yangi mavzu bayoni

Stol ustida oldindan bolalar soniga mos holda so'zlar yozilgan qog'ozchalar qo'yiladi. Qog'ozchalarga “Assalomu alaykum”, “Tashakkur”, “Rahnat”, “Marhamat” degan so'zlar yozilgan bo'ladi. Bolalarga stol ustidagi qog'ozchalardan bittadan olishlari, qog'ozchalarda nima yozilganini sir tutishlari aytiladi. Hamma o'quvchilar qog'ozchalardan olib bo'lgach, yozuvlarga mos, ovozsiz harakat qilib o'z sheriklarini topishlari aytiladi. Masalan: “Assalomu alaykum” so'zi yozilgan qog'oz olgan o'quvchilar o'rnilaridan turib, qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, boshlarini sal egib, yuzlarida nim tabassum bilan harakat qilib sheriklarini topadilar. “Tashakkur” yozuvli qog'ozcha olgan o'quvchilar esa ikkala qo'llarini ham ko'ksilariga qo'yib, sal boshni egib, tabassum bilan harakat qilib

sheriklarini topadilar. “Marhamat” yozuvli qogʻozcha olgan oʻquvchilar bir qoʻllarini koʻksilariga qoʻyib, bir qoʻllarini yonga uzatib harakat qilib sheriklarini topadilar.

“Marhamat” yozuvli qogʻozcha olganlar oʻng qoʻllarini uzatib, chap qoʻllarini koʻksilariga qoʻyib harakat qiladilar.

“Rahmat” soʻzi yozuvchi qogʻozcha olganlar “O, rahmat, rahmat” degandagi holatlarni bajaradilar. Shu tariqa guruhlar boʻlinadi va oʻzlari uchun ajratilgan joylarga oʻtirishib, marker bilan guruh nomlarini koʻrinarli tarzda yozib qoʻyadilar va guruh nomidan kelib chiqib kichik sahna koʻrinishlari tayyorlaydilar. Koʻrinishlar oʻqituvchi tomonidan xulosalanib, baholanadi. Soʻngra darslikning 31- betini ochishlari va Husayn Voiz Koshifiyning “Salomlashish odobi” nomli matnini diqqat bilan ifodali oʻqib chiqish aytiladi.

Bolalar matnini oʻqib tugagatlaridan soʻng, matn mazmuni haqida guruhlar oʻrtasida nusobaqa uyushtiriladi. Guruhlar navbati bilan, bir-birlarini takrorlamagan holda oʻz fikr-mulohazalarini hayotlarida koʻrganlari bilan taqqoslab bayon qilib boradilar. Masalan: “Assalomu alaykum” guruhi qay hollarda qanday salomlashish haqida gapiradi, “Marhamat” guruhi ular javoblarini toʻldiradilar. “Tashakkur” guruhiga qay hollarda salomlashmaslik haqidagi savollar berilsa, “Rahmat” guruhiga ular eʼtiboridan chetda qolgan maʼlumotlarni aytish vazifasi topshiriladi. Bolalarga shunday imkoniyat berish kerakki, xohlasalar guruhning maʼlum bir aʼzolari amalda koʻrsatib, boshqa aʼzosi taʼriflab tursin. Shu oʻrinda sheʼr, maqollardan ham foydalanishlariga imkon berilsa boʻladi. Bolalar fikr-mulohazalari, javoblari tinglanib oʻqituvchi maʼlumotlarni boyitadi. Masalan: Salomlashishning sehrli ekanini, ertakda pahlavon, mard, qoʻrqmas yigitning gʻorga kirganini, gʻorda yalmogʻiz kampirga duch kelganini, unga “Assalomu-alaykum” deb salom berganini, shunda yovuz niyatli yalmogʻizning fikri oʻzgarib, unga omonlik bergani, yaʼni “Gar salom boʻlmaganda ikki yamlab bir yutardim” degan gapini, magʻzini tushuntirib beradi. Yana u baʼzi bolalarning notoʻgʻri salomlashishlari, buni oqibatida soʻz maʼnolarini tubdan oʻzgarib ketishlari haqida gapiradi. Masalan: “Assalomu alaykum” degani Ollohning yerdagi nomlaridan

biri, u sizga Oллоhdan sog'liq omonlik tilayman degani “Som alaykum” degani sizga o'lim tilayman degani. Bilasizki “Assalomu alaykum” so'zi arab tilidan olingan bo'lib, “Som” arab tilidan tarjima qilinganda “o'lim” degan ma'noni anglatadi. Bular albatta o'quvchilarga yangilik bo'ladi.

Shundan so'ng o'quvchilardan mavzu yuzasidan savollari so'raladi. O'quvchilar o'zlariga notanish bo'lgan, ba'zan tanish so'zu, ma'nosi noma'lum bo'lgan so'zlar haqida so'rashadi. Masalan: “Yalmog'iz” nima degani? “Yalmog'iz” yamlab yotuvchi og'iz degan ma'noni anglatadi.

Nega insonlar yonidan turib boshqa joyga borganda ham salomlashiladi?

“Assalomu alaykum” degani faqat tinchlik, omonlik tilab qolishgina emas, yaxshi qoling, keyingi ko'rishguncha sog' bo'ling degani hamdir.

Nega salomlashganda o'ng qo'limizni ko'ksimizga qo'yamiz?

Qadimda bir otaxon yashaganlar. U kishi xushmuomala, o'z yaqinlariga juda mehribon ekanlar. Bir kuni yaqin bir odamlari safarga ketadigan bo'lib otaxon bilan hayrlashibdi. Safarda uzoq qolib ketibdi. Otaxon ancha qarib qolib ko'zlari ham xiralashib, uzoqni yaxshi ko'rmaydigan bo'lib qolibdilar. Bir kuni safarga borgan yaqinlari qaytib kelibdi. Otaxonni ko'rgani kelibdi. Otaxon uni ko'rib yuraklari shuv etibdi-yu, shunda qo'llarini yuraklari ustiga qo'yibdilar. Yuzlarida esa yaqinlarini ko'rganlaridan xursandchiliklari alomati tabassum paydo bo'libdi. Shu otaxonimizdan bizga meros bo'lib o'tgan, salomlashganda o'ng qo'lni yurak ustiga qo'yib, boshni sal egib, yuzda nim tabassum bilan salomlashish.

Ba'zi odamlar bir qo'l bilan, ba'zilari qo'sh qo'llab ko'rishadilar. Nima uchun?

Qadimda bir kishi yonidagi insonga “Men senga do'stman, dushman emasman, qo'limda senga qarshi qurol yo'q” deb qo'l uzatgan, sherigi ham xursandchilik bilan qo'l uzatgan. Shundan boshlab insonlar bir-riblari bilan qo'l berib ko'rishadilar. Bu ham juda yaqinlik, mehr-muhabbat belgisi hisoblanadi.

Ba'zan yuzdan, labdan, peshonadan o'pishib ko'rishishadi. Nima uchun?

Bu ham ko'rishish turlaridan biridir. Juda yaqinlarini, do'stlari-yu-birodarlarini uzoq vaqt ko'rmagan kishi o'sha insonni ko'rganda beixtiyor

qo`choqlab, uni bag`riga bosib o`padi. Qadimda ota-bobolarimiz ko`pincha peshonadan o`pishgan. Peshonadan o`pishni xosiyatli, savob deyishgan. Hozirgi kunda o`ng va chap yuzlaridan o`pishadi. Ba`zan lablardan ham o`pishadi. O`ng va chap yuzdan o`pish mumkin, ammo labdan o`pish mumkin emas. Sababi o`pishayotganlardan birida kasallik bo`lsa, ko`rishganda ikkinchisiga yuqishi mumkin. Buni qadimda ota-bobolarimiz ham lablardan o`pishni ta`qiqlaganlar. Hozirda tibbiyot ham buni tasdiqlagan.

O`quvchilardan bukungi dars haqidagi fikr – mulohazalari tinglanadi, baholanadi, uyga vazifa beriladi. . Husayn Voiz Koshifiyning “Salomlashish odobi” matnini o`qish, katta yoshdagilardan mavzuga doir ma`lumotlar to`plash.

Mavzu yuzasidan BKM

- salom so`zining to`liq ma`nolarini;
- salomlashish turlari;
- qanday hollarda salomlashmaslikni;
- ovoz chiqarib salomlashishni;
- ko`rishish turlarini bilishi;
- o`zbekona salomlashish odobiga rioya qilgan holda salomlashishni amalda qo`llay olishi kerak.

Boshlang`ich ta`limda darsliklarda berilgan allomalarning durdona fikrlari, saxiylik, to`g`rilik rostgo`ylik, sevgi va sadoqat,do`stlik, muruvvat, tinchlik va farovonlikni tarannum etuvchi rivoyatlar hamda avloddan – avlodga o`tib borayotgan an`analarni o`rganish jarayonida ijtimoiy tushunchalar singdirib borishni o`z oldimizga vazifa qilib qo`yishimiz kerak. Chunki barkamol avlod tarbiyasi ota-onalar, tarbiyachilar, o`qituvchilarning ijtimoiy burchlari ham hisoblanadi.

Yusuf Hos Hojibning “Odamdan nima qoladi“ Munavvarqori Abdurashidxonovning “Har kim ekkandin o`rar” hamda “Hadisi Sharif ” kabi rivoyat va hikoyalarda odob- axloq, ezgulik tarannum etilganiga o`quvchining diqqatini qaratish zarurligi ko`zda tutilgan.

“Ma`naviyat- qalb quyoshi” bo`limi yuzasidan berilgan “ Yaxshilik –inson

ziynati” mavzusining dars ishlanmasi quyidagicha

Dars metodi. Modulli o’qitish usuli, kichik guruhlarda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi. Tarqatma material, jadval, buyuk tarixiy shaxslar portreti, mavzularga doir mazmunli rasmlar , darslik.

Dars shakli. Noananaviy dars.

1-modul

O’quv faoliyati elementlari (O’FE)	O’quvchilar o’zlashtirishi lozim bo’lgan o’quv materialiyuzasidan savol-topshiriqlar.	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko’rsatmalar.	Topshiriqlar uchun ajratilgan vaqt.
1-O’FE	<p>Maqsad: O’quvchilarni ichda mustaqil o’qishga o’rgatish. So’z ma’nolari ustida ishlashga o’rgatish Yusuf Xos Hojib haqida ma’lumot berish. Savol va topshiriqlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Asarni ichda o’qing 2. Ma’nosi tushunarsiz so’zlarni lug’at daftaringizga yozing. 3. Asar mavzusini aniqlang. 4. Qanday odamlarni yaxshi deyish mumkin? 	<p>Darslikdan “Odamdan nima qoladi?” (Yusuf Xos Hojib) asrini o’qing. Savollarga yakka tartibda javob bering. Savol-javobda ishtirok eting. O’z faoliyatingizni baholab boring.</p>	Daqiqa
2-O’FE	<p>Maqsad: Mustaqil fikrlashga, izlanishga o’rgatish. Asar voqealarini qismlarga ajratib har bir qismning mazmunini, ilgari surilayotgan fikrni o’zlashtiribolishlariga erishish, o’qish malakalarini takomillashtirish. Savol va topshiriqlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Asarni necha qismga ajratish mumkin? 2. Birinchi qismini o’qing va qayta hikoyalang? 3. Birinchi qismdagilari surilgan asosiy fikrni aniqlang? 	<p>Asrni ichingizda o’qing va qismlarga ajrating. Birinchi qismini o’qing va qayta hikoyalashga tayyorlaning. Birinchi qismdagi asosiy fikrni ifodalovchi gaplarni</p>	Daqiqa

		toping.	
3-O'FE	Maqsad: O'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirish, o'qish sur'atini oshirish. Topshiriq: "Har kim ekkanin o'rar" hikoyasidagi keksa kishi, nevara, kelin va o'g'il suhbatini rollarga bo'lib o'qing.	Avval muallif va qahramonlarning nutqini belgilab oling va o'qishni mashq qiling.	daqiqqa
4-O'FE	Maqsad: o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish. Tanlab o'qish orqali asardagi muhim fikrlarni o'zlashtirishlariga erishish. Savol va topshiriqlar: 1. Yozuvchi tiriklikda nima qilmoq kerak deydi? Shu o'rinlarni topib o'qing va ma'nosini tushuntiring. 2. Dono va nodon kishilar haqida aytilgan fikrni topib o'qing va ma'nosini izohlang 3. Yaxshi va yomon kishilar haqida aytilgan fikrlar haqida topib o'qing va ma'nosini tushuntiring. 4. Yomonlik haqidagi misralarni topib o'qing va ma'nosini tushuntiring.	Savol va topshiriqlarga javob toppish uchun asarni ichingizda o'qing. Ma'nosini o'z so'zlaringiz bilan so'zlab berishga tayyorlaning	Daqiqqa
5-O'FE	Maqsad: O'quvchilarning ijodiy fikrlashini takomillashtirish va yozma nutqni o'stirish. Topshiriq: "Yaxshilik va yomonlik" mavzusida yozib kelgan matningizni o'qing.	Har bir gapingizni qisqa va aniq bo'lishiga imloviy to'g'ri shakllanishiga e'tibor bering.	daqiqqa

Dars yuzasidan ko'rsatmalar.

Darsning tashkiliy qismi uchun 3 daqiqqa ajratiladi. Bunda darsni tashkil etish va uning shakli haqida ma'lumot beriladi. O'quvchilar 2 ta guruhga-jamoaga ajratiladi. Jamoalar o'z ichida mustaqil ravishda kichik guruhga ajratiladi, savollarni bittadan bo'lib olib bajarishlari, bir-biriga uzatib to'ldirishlari mumkinligi aytiladi.

Darsda intizom alohida baholanishi tushuntiriladi.

O'quv faoliyati elementining har bir savoli, topshirig'i alohida kartochkaga

yoziqib, konvertda guruh sardoriga beriladi. O'FE o'qituvchi tomonidan darsga tayyorgarlik vaqtda o'quvchilarning bilim darajasiga qarab kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

Har bir o'quv faoliyati elementining bajarilishiga qarab, o'quvchilar jamoasi va ayrim faol o'quvchilar ballar bilan rag'batlantiriladi. Doskaga har bir jamoa ro'yxati alohida ilib qo'yiladi. O'qituvchi ballni e'lon qilib, qo'yib boradi.

Jamoalar to'plagan umumiy ball dars yakunida e'lon qilinadi. Har bir o'quv faoliyati uchun 5 yoki 10 ball me'yori asos qilib olinadi.

Darsga yakun yasash uchun 2 daqiqa ajratiladi.

Darsning bu qismida quyidagi savollarga javob olinadi: Bugungi dars sizda qanday taassurot qoldirdi? Dars yuzasidan qanday takliflaringiz bor? Darsda qanday kamchiliklar bor? Savol-topshiriqlar sizda qiyinchiliklar tug'dirdimi?

Uyga vazifa. Kutubxonadan hadis va rivoyatlar mavzusida badiiy asar va ertaklarni olib. O'qituvchi asarlarning muallifi va nomini aniq aytishi maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, modulli texnologiyani qo'llash bilan tashkil qilingan va o'tkazilgan darslarda o'quvchilarning bilim olishlarini faollashadi, o'qitish samaradorligi yuqori darajada bo'lishi kafolatlanadi. Modulli darslarning afzalligi an'anaviy dars bilan taqqoslanganda ko'zga yaqqol tashlanadi.

2.2. Boshlang'ich sinfl o`qish darslarida hadislarni o`qitishning interfaol usullari

Bugungi kunda ta'lim tizimining qaytadan isloh qilinishi natijasida yangi ta'lim tizimi joriy qilinishi va Yangi Pedagogik Texnologiyalardan foydalanish maktab dasturlariga va darsliklariga zamon talabiga mos mavzularni mukammal yorituvchi uslublarni dars davomida joriy qilish va ularni qo'llash o'quvchilarning o'qishdagi faoliyatini yanada samarali qiladi.

Ana shu YaPTlardan foydalanish darsni noan'anaviy shaklda tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilarini bir muncha erkin fikrlash va ijodkorlikka

o`rgatadi. Shu maqsadda YaPTlardan, xususan, interfaol yoki innovatsion usullardan foydalanish mumkin.

Innovatsiya so`zi lotincha bo`lib, “inovatsis–yangilik” so`zidan kelib chiqqan. YaPTlarni darslarda qo`llagan holda mavzularni bolalarga o`rgatishda innovatsion uslublarning ahamiyati kengdir.




YaPTlardan dars jarayonida foydalanishda o`quvchi va o`qituvchi orasidagi bog`liqlikni mukammallashishiga erishish va bilimlar tizimliliigi, boshqaruvchilik faoliyatining takomillashuviga erishish mumkin.

Boshlang`ich sinflarda YaPTlardan foydalanishda o`qituvchi ko`proq o`quvchilarni mustaqil gapirishlariga, o`z–o`zini boshqarish jarayoniga ega bo`lishiga erishtirmog`i lozim. Shuning uchun ham bugungi kunda YaPTlarning barcha fanlarga keng ko`lamda joriy etilishining asosiy sababi ham shundadir. I–IV sinflarda hadislarni o`rgatishda va o`qitishda ham YaPTning bir qancha usullarini qo`llash mumkin. Albatta bu usullardan foydalanishda o`quvchilarning yoshi, fikrlashi va dunyoqarash doirasi ko`lamiga e`tibor qaratish lozim. Hadislarni o`qitish I–II sinflardagiga nisbatan III–IV sinflarda ko`proq amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan I–II sinflarda ko`proq hadislarni o`qitishni turli didaktik o`yinlarga bog`lab o`tish maqsadga muvofiq. Bunda didaktik o`yinlar soddaroq va izchil bo`lishi lozim.

**IV sinf darsligining “ Ma’naviyat –qalb quyoshi” bo’limi yuzasidan berilgan
“Hikmatlar xazinasini” mavzusini quyidagicha usulda o’rganish mumkin**

“Venna diagrammasi” usulini hadislarini o’qitishda qo’llash


1. Hadis. Beshikdan qabrgacha ilm izla.
2. Hadis. Ilm olmoqlik har bir musulmon uchun farzdur.
3. Umumiylilik jihatlari.
4. Farqli jihatlari.



Bu usullardan foydalanishda hadislar bilan birga hadis va maqol, hikmatli

soʻzlarni ham olish mumkin. Ushbu usul boshlangʻich sinf oʻquvchilariga tushunarli tarzda bayon etilishi lozim.

Klaster usulini boshlangʻich sinflardan IV sinfda hadislarini oʻqitishda qoʻllash



I–IV sinflarda hadislarini oʻqitishda qoʻllash mumkin boʻlgan didaktik oʻyinlar

“Poezddagi sayohat” oʻyini

Ushbu didaktik oʻyinda sinf oʻquvchilari uch guruhga ajratiladi va har bir guruh biror chiroyli nom bilan nomlanadi. Albatta nomlar ham mazmunan

hadislarga yaqinroq bo`lishi yoki istiqlolni ifodalovchi, milliylikni aks ettira oladigan bo`lishi kerak. Masalan, “Sahobalar”, “Muhaddislar”, “Kelajak”, “Humo”, “Istiqlol” kabi nomlarni berish. Bu uch guruh bitta poezddagi uchta vagonga oldinma ketin joylashib, sayohat qilishlari lozim. Lekin, kim birinchi vagonda ketishi noaniq. Bu noaniqlikka aniqlik kiritish uchun o`quvchilar quyidagi to`rtta shartni bajarishlari va birinchi vagonga harakat qilishlari lozim. Shartlar esa quyidagicha:


1- shart. “Odob inson ko`rki”.

Bu shartda har bir guruh bir–biriga hadislar aytadi. qaysi guruh ko`p va mazmunli hadis aytganligiga qarab, ushbu shartning g`olibiga aylanishi mumkin. O`quvchilar bu shart orqali ko`proq hadislar yodlashga harakat qilishadi.

2 - shart. “Zehnu zakovat”.

Bu shartda guruhlar bir–biriga hadislarining birinchi qismini aytadi, ikkinchi guruh esa davom ettirib ketaveradi. qaysi guruh hadis aytolmasa yoki hadisning davomini topa olmasa o`yindan chiqib turadi. Huddi shunday o`yin davom etib ketadi. Masalan, birinchi guruh “Safar qilinglar...” desa, ikkinchi guruh “Sog`lom bo`lasizlar”, ya'ni bunda “Safar qilinglar–sog`lom bo`lasizlar” hadisini aytishlari kerak. Endi uchinchi guruh “Uch toifa odam jannatga kirmaydi...” desa, birinchi guruh “1. Ota–onasini ranjitgan, 2. Mayxo`r, 3. Berganini minnat qiluvchi kishi” deya davom ettirib boraveradi.

“Ilm xazinası” daraxti



3 - shart. “Oltin toj” o`yini.

Bunda o`quvchilar “Oltin toj” o`yinini o`ynashadi, ya'ni qo`yidagi rasmdan foydalanib o`ynaydi.

Ushbu rasmdagi har bitta topshiriq yoki savol yashirin savollardan hadislar haqidagi topshiriqlardan iborat bo`lgan rasmlardan tashkil qilinadi va bu topshiriqlar bajarilishi uchun uch guruhning sardori o`zaro bellashishadi. Har bitta savolga javob yozishga harakat qilishadi.

4 - shart. “Kim zukko”.

Ushbu shartda har bir guruh konvertdagi to`rtta hadisning mazmunini gapirib beradi.

Har bitta shartga eng yuqori ball uch ball qo`yiladi. O`quvchilarning shartlarda to`plagan ballariga qarab, vagonlardagi o`rinlarning almashinish jarayoni sodir bo`ladi. Eng yuqori ballni qo`lga kiritgan guruh birinchi vagondan joy olishi mumkin.

Ushbu didaktik o`yinni dars davomida qo`llashdan asosiy maqsad o`quvchilarga hadislarni va hadislariga bog`langan odob ahloq ko`rinishlarini boshlang`ich sinf o`quvchilariga singdirish hadislarni o`qitish uchun didaktik o`yinlardan foydalangan holda kichik maktab yoshidagi bolalarga ta`lim-tarbiyaning yuksak ko`rinishlarini shakllantirishdan iborat. Ushbu didaktik o`yinni “Odobnoma”, “O`qish” darslarida qo`llash mumkin va ushbu didaktik o`yin orqali o`quvchilarni ham mustaqil fikrlashga, ham hadislarni o`rganishga chorlash mumkin.

Boshlang`ich sinflarda dars davomida bunday didaktik o`yinlardan “Sirli sandiq”, “Bahoroyning savollari”, “Zanjir”, “Imom al Buxoriy aytadi” kabi bir qancha turlaridan hadislarni o`qitishda foydalanish mumkin.

YaPTning joriy etilishining faqatgina dars davomida darslardagi mavzularga o`z ta'sirini ko`rsatib qolmay balki, baholash mezonining o`zgarishiga ham sabab bo`ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda ball sistemasi asosidagi reyting tizimida o`quvchilarni baholash, ball olish masalalari MSTI, ya'ni majburiy standart tekshiruv ishlarini o`quvchilardan tez-tez olib turilishi albatta o`quvchilarda bilim va ko`nikmaning shakllanishidagi asosiy vositalardan biri bo`ladi. Boshlang`ich sinflarda hadislarni o`qitish jarayonida ham huddi shu tizimdan foydalanish va rag`bat kartochkalaridan, tarqatma materiallardan foydalanish samarali natija beradi.

Didaktik o`yinlardan yana biri “Kim topqir” o`yinidir.

“Kim topqir” o`yini

Hadislarni o`rgatishda “Kim topqir” o`yini o`ynatish quyidagicha amalga oshiriladi. Sinf o`quvchilaridan to`rttasi doska yoniga chiqarilib, o`quvchilarga teskari qaratilib qo`yiladi va ularning orqasiga hadis ilmi bilan bog`liq

tushunchalar yoki mashhur hadisshunoslarning ismlari yozib qo`yilgan taxtachalar ilinadi. So`ngra bu to`rt o`quvchi o`quvchilarga qaraydi. Ularga 5–6 imkoniyat beriladi. Ular 5 yoki 6 savolni o`quvchilarga berish orqali o`zlarining kim yoki nima ekanligini aniqlashadi. Savollar “aylanma” savol yoki “ilgakli” savollardan bo`lib, to`g`ridan–to`g`ri “Men hadismanmi?” yoki “Men Imom al Buxoriymanmi?” deya savol berish o`yin qoidasining buzilishini ko`rsatadi. Bu o`yin ham o`quvchilarni o`ylashga, fikrlashga, hadislar haqidagi barcha ma'lumotlarni to`plab qayta ishlashga, ya'ni analiz–sintez jarayonining olib borilishiga zamin hozirlaydi.

“Zanjir” o`yini

Ushbu o`yinda o`quvchilardan ettitasi ishtirok etadi. Bunda birinchi o`quvchi bir varaqchaga hadisning bosh qismini yozadi. Ikkinchi o`quvchi uni to`ldiradi va u endi boshqa bir hadisning bosh qismini yozadi. Keyingi o`quvchi ham bu hadisni to`ldiradi. Huddi shunday hadislar aylanib boraveradi. Lekin, kim hadis davomini yoza olmasa yoki o`zi hadis topa olmasa, zanjir o`sha erda uziladi va o`sha o`quvchi o`yindan chiqadi. Bu o`yinni butun sinf o`quvchilariga ham qo`llash mumkin. Ushbu o`yinning asosiy maqsadi o`quvchilarning eslash qobiliyatini o`stirish, qolaversa hadislar yuzasidan fikrlashga qiziqtirishdir.

“Bahoroyning savollari” o`yini

Bu o`yin boshqa o`yinlardan texnikaviy jihatdan ancha farqlanadi va o`yindagi mazmun mohiyat quyidagicha. Bahor qizi tasviri tushirilgan rasmda uning o`nta savoli va bu savollardan xohlaganini tanlash texnikasini avtomatlash–tirilgan qurilma orqali biz bir o`quvchidan xohlagan o`nta savoldan birini tanlashi mumkinligini aytamiz. U o`nta savolning birortasini tanlaydi. Deylik to`qqiz sonini tanladi. Shunda Bahoroy bizga to`qqiz sonining shartini ko`rsatadi. Ya'ni to`qqiz sonining sharti o`quvchi muhaddislar sultoni haqida ma'lumot berishi kerak. Albatta bunda savollar va shartlar o`quvchilarning bilim darajasi va yoshiga qarab beriladi. O`qituvchi o`zi aytmagan yoki bermagan ma'lumotlar haqida savol berishi noto`g`ri hisoblanadi.

“Jimjitlik” o`yini

Bu o`yin o`quvchilarning hayolini, tasavvurini va fikrlashini kengaytirishga xizmat qiluvchi o`yin bo`lib, bunda o`quvchilar jim o`tirishadi. Ya'ni ular hech qanday so`z ishlatmaydi. O`qituvchi esa doskaga hadislar haqida savol yozadi yoki buyuk muhaddislar nomini, hadislarini yozib qo`yishi mumkin. O`quvchilar yozilgan hadis, savol yoki muhaddislar haqida tushunchalarini so`zsiz mimika orqali bayon etishga harakat qilishlari kerak. Bu o`yin turi ko`proq nutq o`stirishga bog`liq bo`lib, o`quvchilar qo`l harakatlari orqali fikrni ifodalashga harakat qilishadi.

Boshlang`ich sinflarda didaktik o`yinlar bilan bir qatorda albatta quyi sinf o`quvchilarining tarqoq diqqatini bir joyga to`plash maqsadida dam olish daqiqalari ham o`tkazilib boriladi. Dam olish daqiqalari mavzuga bog`langan holda tashkil qilinsa o`tilayotgan mavzu o`quvchilar ongida tezroq sintez qilinishi va o`qituvchi birgina dam olish daqiqasini o`tkazish orqali o`quvchida ushbu mavzuga bog`liq bo`lgan ko`plab tushunchalarni hosil qilishi mumkin.

Buyuk ajdodlarimiz merosini o`rganishda yoki hadislarini o`rganish jarayonida quyidagi dam olish daqiqalaridan yoki bolalarga muhaddislar haqidagi she'rlarni yodlatib, o`rgatib borish mumkin. Bu jarayonda o`quvchilar mexanik yodlagan so`zlarini takror aytish orqali mazmunini chaqishga harakat qiladi.

Dam olish daqiqasi

Tariximiz buyuk merosi,

Odob nima anglaymiz.

O`zbek xalqining buyuk bobosi.

Ota–ona hurmatin,

Jahonda dovrug`i bor ustoz muhaddis,

Bilib salom bergaymiz.

Yozib qoldirgan bizga necha ming hadis.

Hadis o`rgangan bola,

Zehnli bo`lar doim.

Samarqandga chorlar bizni bir maqbara,

Imom al Buxoriy ham,

Bilsangiz buyuk olim.

Islom olamidagi ulug` ikkinchi Ka'ba

Yoshlikdan olsak bilim,

Hadislarni o`rganib,

Toshga o`yarmiz naqsh.

Keksayib olsak bilim,
Muzga bitarmiz shakl.
Shuning uchun donolar,

Deydilar o`rgan bilim.
Ilmda ko`p sinoat,
Imla yuksak elim.

Keltirilgan dam olish daqiqalarini o`quvchilarga yodlatish mobaynida ushbu hadislar va Imom al Buxoriy haqidagi fikrlarni ifodalab, izohlab berish, tushunarsiz so`zlarni tushuntirib o`tish va dam olish daqiqasini o`quvchilarning aqliy salohiyatiga qarab o`rgatish lozimdir.

Demak, boshlang`ich sinflarda hadislarini o`qitishda I–IV sinflardagi har bir sinf uchun mos keluvchi usullardan foydalanish va ushbu sinflarning aqliy qobiliyatiga e'tibor qaratgan holda osondan qiyinga qarab, oddiydan murakkabga tomon yo`naltirilgan usullarni va didaktik o`yinlarni qo`llash lozim. Usullardan III–IV sinflarda qo`llash mumkin bo`lganlarini I–II sinflarda qo`llash mumkin emas. Didaktik o`yinlar va dam olish daqiqalaridan hadislarini o`rgatishda foydalanish samarali natija beradi.

Bugungi kunda YaPTning darslarga joriy etilishi ushbu sinf o`quvchilarini kelajagi porloq, o`zbekiston yoshlari bo`lib etishishiga erishish uchun asosiy vosita sifatida ishlatish, mafkuramizdagi bo`shliqlarning oldini olishga yordam beruvchi, milliy istiqlol g`oyasi va ma'naviyatimiz shakllanishida bosh mezonlardan biri bo`lib xizmat qilishi mumkin.

Maktab dasturlarida ishlab chiqilgan nizomlar yoki tashkiliy faoliyat jarayonlarini kuzatganimizda shunday jarayonlarga duch kelamizki, maktabda sinfdan tashqari ishlar juda muhim rol o`ynaydi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkillashtirish va o`tkazish maktabda o`quvchilar onggi va fikrlash qobiliyatiga juda katta ta'sir o`tkazadi. Sinfdan tashqari ishlar har bir sinfdan o`quvchilarning idrok qilish va o`zlashtirish qobiliyati, o`tgan mavzulari yuzasidan tashkil qilinishi mumkin. Boshlang`ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar har bir bo`lim yuzasidan tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Maktab bosqichlarida nafqat quyi sinflardagi, balki yuqori sinflarda ham hadis ilmi bo`yicha sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish mumkin.

Hadislarni o`rganib borish jarayonini boshlang`ich sinflardan boshlab borilsa, bolalarning ta`lim–tarbiyasiga juda katta ta`sir o`tkazib, ularda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi birqancha insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, hadislar yuzasidan Imom al Buxoriy tavallud topgan kuni yoki Imom at–Termiziy kabi allomalarimiz haqidagi sinfdan tashqari ishlarni tashkil e`tishimiz mumkin. Albatta sinfdan tashqari ishlar tarbiyaviy soatlardan farqlanib sinfdan tashqari ishlarni olib borishda quyi tashkilotchilar va yuqori tashkilotchilar vaoliyat yuritib kichik maktab yoshidagi bolalarga yuqori sinf o`quvchilari yordam berishi, ularga ayrim tushunchalarni o`rgatishlari, tashkiliy ishlarni yurgizishda yordamlashmog`i lozim.

Quyida sizga III–IV sinflarda o`tkazish mumkin bo`lgan sinfdan tashqari ishlarda hadislar ustida tashkil qilingan bir tadbirning dasturini bayon etamiz.

III–IV sinflarga mo`ljallangan “Beshikdan qabrgacha ilm izla” badiiy kechasi

Kechaning maqsadi: O`quvchilarda hadis ilmi va hadisshunos muhaddislar haqida to`liqroq fikrlar va tushuncha uyg`otish, hadislar orqali kichik bolalarda insonning eng ezgu fazilatlarini shakllantirish, milliy qadriyatlarni e'zozlashga o`rgatish.

Kechaning borishi:

1. Tashkiliy qism.

Tashkiliy qismda o`quvchilar tomonidan ushbu badiiy kechaga tayyorgarlik ko`riladi. O`quvchilar ikki guruhga ajratilib, ularning tashkilotchilari kechani o`tkazish uchun mo`ljallangan joyga hadis ilmiga bog`liq bo`lgan devoriy ro`znomalar, turli ko`rgazmalarni tashkil qilishadi. qolaversa, Imom al Buxoriy hayotiga bog`liq turli savol javob o`yinlarini tashkil etish, Imom al Buxoriy, Imom at–Termiziy kutubxonasini tashkil etishlari va tadbir o`tkazadigan joyni etarlicha qilib bezashlari mumkin. Belgilangan joyni bunday holatda bezashdan maqsad shundaki, tadbirga kirgan tomoshabin albatta, bu erda hadislar ilmiga bog`liq bo`lgan tadbir o`tkazilayotganligini va ular go`yoki o`zlarini “hadislar olami”ga kirib qolganday his etishlari, bayramga yuqori kayfiyat va hadislariga bo`lgan

qiziqishlarini uyg`otish mumkin.

So`ngra bayramni tashkil etgan sinf o`z dasturlari, badiiy chiqishlari, o`yinlari bilan belgilangan vaqtga tayyorgarlik ko`rishadi. Badiiy kechaga albatta o`quvchilar, o`qituvchilar, ota-onalar, yuqori sinf o`quvchilari taklif etilishi mumkin. Kechaga taklifnoma va e'lonlar tashkil qilinadi.

2 - qism. Badiiy kechaning borishi.

Bu qismda o`quvchilar ikki guruhga ajratilib, hadis va hadis ilmi, hadisshunoslar haqida bahslashadilar. Bahslashishdan oldin ular bir qancha vaqt tayyorgarlik ko`radi va o`zlari tayyorlab kelgan kechaning badiiy qismi ko`riladi.

Badiiy kecha ishtirokchilari:

Boshlovchi.

Birinchi guruh sardori va a'zolari. “Zukkolar” guruhi.

Ikkinchi guruh sardori va a'zolari. “Porloq kelajak” guruhi.

Imom al Buxoriy.

Imom at-Termiziy.

Ota va bola.

Hadis kitobi.

Nuroniylar.

Sahna hadis ilmini o`rganishga mos ravishda bezatilgan va “Hadis kutubxonasi” burchagi tashkil etilgan. Imom al Buxoriy portreti sahna to`rida berilgan va zalning bir qancha joylariga ilm, insoniy fazilatlar, odob ahloq va boshqa mavzularga qaratilgan hadislar yozib ilib qo`yilgan.

Sahnada ota va bola paydo bo`lishadi. Ota savdogar bo`lib, islom diniga e'tiqodi unchalik baland emas, o`g`lining ham faqat pul topishini xohlaydi va uni shunga undaydi. O`g`li esa zehnli, odobli bola va ko`p hadislarni yoddan biladi. U otasining savdoda qilayotgan ko`pgina qabih ishlaridan ko`pincha ranjiydi. Ular ayni paytda bozorda ketishmoqda. Bozarga kelgach ota: “Mana o`g`lim etib keldik. Haridorlar shu erga ko`proq kelishadi. Sen mana bu marjonlarni olib sotasani o`g`lim. Faqat, – “Bu molni Arabistondan keltirganmiz” –degin. Xo`pmi? qani boraqol”.

O`g`il: “Ota, (erga qarab) axir bu mollarni siz kecha buxorodan keltirdingizku?”.

Ota: (kulib) “E, o`g`lim muncha ko`p gapirmasang. Hazirgi zamonda yolg`onsiz kuning o`tarmidi? qolaversa xalq Buxoro bilan Arabiston mollarining farqini qaerdan ham bilsin? Yolg`on so`zlashga ham o`rganda o`g`lim”.

O`g`il: “Axir hadisda munofiqlarning uch belgisi bor. Gapirganda yolg`on gapiradi deyishganku?”.

Ota: “Shu o`g`lim keyingi paytlarda rosa bilimdon bo`lib ketayapsanda. Ilmning ortiqchasi ham ortiqdir. kattalar bir narsa aytganda “xo`p” deb bu ishni bajarish kerak, qani bo`laqol tezroq”.

Shu paytda sahnada bir nuroniy chol paydo bo`lib marjonning narxini kelib boladan so`raydi.

Ota: “Oling taqsir. Ushbu marjonlar bizning bozorimizda juda kam. Men bu marjonlarni Arabistondan keltirganman”.

Nuroniy chol: “Bunday deyishga uyalmaysizmi, taqsir? Axir bu marjonlarni Buxoroda men bir necha bor uchratganman. Hadisi sharifda yolg`onchilik, o`z farzandlariga noto`g`ri tarbiya berish haqida ko`p hadislar keltirilgan. Afsuski hozir vatandoshlarimiz yoshlarga hadis o`rgatishmaydi. Ular ko`p hadislarni bilishmaydi”.

Ota bu gaplardan so`ng uyaliq qoldi. Bundan hijolat tortgan o`g`il cholga yuzlanib shunday dedi:

O`g`il: “Siz juda tez xulosa chiqardingiz bobojon! Bugun men o`qiyotgan maktabda mening tengdoshlarim buyuk bobokalonlarimiz tavalludiga bag`ishlab va ularning qilgan ishlarini o`rganish uchun “Beshikdan to qabrgacha ilm izla” zukkolar bellashuvi o`tkazayapti. Agar istasangizlar hozir men sizlarni o`sha erga olib boraman”.

Ota va chol xursand bo`lib, o`g`ilga deyishdi:

– qani yurchi o`g`lim, shu bahonada biz ham bilmagan hadislarimizni bilib olarmiz.

Ular sahnadan chiqib ketishadi. Sahnada boshlovchi paydo bo`ldi.

Boshlovchi:

Assalom ustozlar mehri daryolar,

Yuragi quyoshu qalbi ziyolar.

Sizga yo`llagayman yurakdan salom,
qo`llarim ko`ksimda deyman assalom.

Assalomu alaykum hurmatli ustozlar hamda o`quvchilar, ota-onalaru, bugungi bayramimizga tashrif buyurgan barcha-barcha. Mana bugun biz “Beshikdan to qabrgacha ilm izla” badiiy kechasini tashkil etganmiz. Hozir siz ushbu badiiy kechamiz orqali o`quvchilarning, ya'ni mening tengdoshlarimning hadis ilmini naqadar yaxshi o`rganganliklarini bilib olasiz va ushbu badiiy kechamizda siz biz bilan birgalikda tarixga, ulug` muhaddislar sultoni davriga sayohat qilasiz. Marhamat tomosha qiling!

Sahnada barcha qatnashuvchilar chiqib O`zbekiston madhiyasini aytishadi.

Boshlovchi:

Tarix kitobidan ochsam sahifa,
Toparman buyuk ustoz merosin.
Imom at-Termiziy, Imom Buxoriy,
Hadis olamida yashardi boqiy.
Ulardan qolgan eng buyuk meros,
Hadislar olamidir, hadislar xolos.

Hozir bugungi badiiy kechamizda o`zaro bellashuvchi ikki guruh sardorini men sahnaga taklif qilaman. Ular “Porloq kelajak” va “Zukkolar” guruhlari bo`lib, bugungi kechamizda bu ikki guruh quyidagi shartlar asosida bellashadilar.

1 - shart. Tanishuv sharti. Bunda har ikkala guruh ham nomini, shiorini, ko`krak nishonini namoyish qilib, yod olgan hadislarni aytishadi, guruhlar intellektual salohiyatini oshirishga harakat qiladi.

2 - shart. “Hadisi sharifdan...” sharti. Bu shartimizda o`quvchilar aylanma qutichadan olgan qog`ozlaridagi hadislarning davomini aytishadi. Ushbu shart navbatma navbat bajariladi.

3.- shart. “Xalqimizda shunday maqol bor” sharti. Bu shartda guruhlar

konvertidagi maqollarning mazmuniga mos keluvchi hadislarni topib yozishadilar. Maqollar o`zbek xalq maqollari bo`lishi kerak.

4.- shart. “Sardorlar bahsi”. Bu shartda sardorlar bir–biriga Imom al Buxoriy, Imom at–Termiziy yoki hadislar haqida savollar berishadi.

Ushbu shartlarni baholovchi hakamlar hay'ati tashkil etilgan bo`lib, boshlovchi ular bilan tanishtirib o`tadi va baholash mezoni 3 ballik sistemada ekanligini e`lon qiladi.

So`ngra boshlovchi badiiy kechaning asosiy qismini boshlaydi.

Boshlovchi: Mana hurmatli ishtirokchilar! Shartlarimiz bilan ham tanishib oldik. Endi navbat sizlarga. qaysi guruh birinchi bo`lib boshlab berishini qura tashlash yo`li bilan aniqlaymiz (qura tashlanadi). Demak, birinchi bo`lib “Zukkolar” guruhi boshlab beradi. Marhamat sahnada “Zukkolar” guruhi.

“Zukkolar” jamoasi o`ziga xos biror ko`rinishda chiqadi, yo qo`shiq aytadi, yo sahnaviy chiqish qiladi va boshqa.

“Zukkolar” jamoasi sardori:

Bizning guruh “Zukkolar”,

Ilg`orlikda tanholar.

Yod olganmiz hadisni,

Bilarmiz sulton muhaddisni.

Imom al Buxoriydek jahonni kezsak,

Biz ham buyuk olim, muhaddis bo`lsak.

Bizning guruh: “Zukkolar” – kelajakda bo`lur donolar.

Bizning shior: Yoshlikdan o`rgan bilim,

Kelajakda bo`lgin etuk olim.

Men shu guruh sardori _____ bo`laman.

Bizning guruh a'zolari _____ sinf o`quvchilari.

Shundan so`ng guruh a'zolari yoddan bilgan hadislarni aytishadi. Hadislar haqida sodda va qisqa ma'lumotlar berib o`tishadi.

“Porloq kelajak” guruhi ham huddi shunday usulda o`z jamoasini tanishtirib o`tadi, faqatgina ularning tanishishi o`z nomidan kelib chiqqan holda bo`lishi

kerak.

Bu shartga ilova tarzda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tanishish ertakka, rivoyatga yoki boshqacharoq ko'rinishga tayangan holda tashkil etilishi ham mumkin.

Birinchi shart bajarilib, hakamlar hay'ati tomonidan baholangach, boshlovchi sahnaga chiqqanda sahnada Imom al Buxoriy va Imom at-Termiziylar paydo bo'lishadi.

Boshlovchi: –Vo ajab, bugungi kechamizga nahotki buyuk ajdodlarimizning o'zlari tashrif buyurmoqda?!

Imom at-Termiziy: –Hech ajablanmang nabiram, ustozim ikkimiz sizlarning bunday badiiy kecha tashkil etganligingizdan quvonib “Tarix vodiysi”dan uchqur otlarda etib keldik. Zero, shunday kechaga buyurmoqlik biz uchun farzdir.

(Shundan so'ng so'zni Imom al Buxoriy davom ettiradi).

Imom al Buxoriy:

Yoshlikdan berdim ilmu ma'rifatga havas,

Shu maqsadni ko'zlab kezdin dunyo ahlini.

Hadislar yod oldim, to'pladim, bildim,

Shul hadislardan bir kitob bitdim.

“Al jome' as sahiyh” deya nomladim uni,

“Chin insonni ulug'lar xalq”–unutmangiz, farzandim shuni.

Boshlovchi: –Rahmat sizga buyuk bobojonlar. Marhamat bugungi kechamizning aziz mehmoni bo'ling. (Mehmonlar joylashadi). Mana endi bugungi o'yinimizning ikkinchi shartiga ham etib keldik. Marhamat guruhlar navbat bilan qutichadan qog'ozlarni olib hadisni davom ettiring.

(Guruh a'zolari “Sirli quticha”dan o'ntagacha savol olishlari mumkin.

“Sirli quticha” tez–tez aylantirib turiladi).

Olingan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin.

Beshikdan to qabrgacha...

Yoshlikdan olingan bilim...

Bir kun ilm o'rganmoq...

Jannat onalar...

qo`shning seni yaxshi deb bilsa...

Avval onagga, yana onagga...

Kimning uch qizi bo`lib, ularni o`z qo`lida...

Berilayotgan hadislarining davomini har ikkala guruh ham davom ettirishi lozim. Agarda qaysi guruh hadislarini davom ettira olmasa, o`sha guruh kamroq ball to`playdi.

Ushbu shart ham hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi.

Boshlovchi: –Mana hadislarining anchasini yoddan bilar ekansiz. Bugungi javoblaringizdan ko`rinib turibdiki, siz hadislarini juda yaxshi o`rgangansiz. qani endi eshitaylikchi “hadis” kitobining o`zi bizga nima der ekan. hozir davraga hadis kitobini taklif etsak.

“Hadis” kitobi so`zi

qur'oni Karimdir islom kitobi,

Insoniy hislatlar mujassam unda.

Turli tortishuvlarga barham bermoqqa,

Hadislar ilmini bunyod etdi kim?

Imom al Buxoriy yoki Termiziy,

Yaratdi “Al jome' as sahiyh” kitob.

Mening ismim o`sha, menmanku hadis,

Ilm – odob haqida so`zlovchi oftob.

Odob ahloqingda bo`lsa kamchilik,

Yoki qilib qo`ysang bir katta gunoh,

Meni o`qi o`g`lon menda mavjud so`z,

Mendan toparsan darmon, bo`larman panoh.

Hadisman o`rgansang hadis ilmini,

Oshirib borursan bilim zehningni.

Boshlovchi: Marhamat sizga hadis kitobi,

Ilmu ma'rifatning buyuk oftobi.

Marhamat “hadisu sharif” siz ham bugungi davramiz mehmoni bo`ling. Biz

yoshlarning olgan bilimlarimizni bir sinab ko`ring (hadis kitobi o`tiradi). Mana endi navbat uchinchi shartimizga. Bu shartimizda ikkala guruh sardori hakamlar hay'ati stoli ustidan konvertlarni olishadi va konvertdagi maqollar mazmuniga mos keluvchi hadislarni guruhlar birgalikda topib yozishadi. qaysi guruh ko`p va chiroyli hadis yozganligiga qarab ushbu shart baholanadi.

Maqollar.

Qo`shning tinch sen tinch.

O`zingni to`g`ri tut,

qo`shningni o`g`ri tutma.

Ona yurtning omon bo`lsa, rangi

ro`ying somon bo`lmas.

Bilim baxt keltirar. Hamma

Hadislar.

Qo`shning agar seni yomon deb bilsa, demak bilki sen yomonsan. Agar yaxshi deb bilsa demak sen yaxshisan.

Vatanni sevmoq–
iymondandur.

Har bir musulmon uchun ilm olmoqlik farzdur.

Misollarni ko`plab keltirish mumkin. Demak o`quvchilar maqol mazmuniga mos hadis yozolmasa, bu shartdagi ball ko`rsatkichlari kamayadi. O`yin to o`quvchilardan biror guruh javob berolmay qolguncha davom etadi.

Ushbu shart ham ikkala guruh tomonidan bajarib bo`lingach, hakamlar hay'ati baholaydi.

Keyingi shartga qadar o`quvchilarni zariktirmaslik uchun tomoshabinlar bilan turli qiziqarli o`yinlar o`tkazish mumkin.

Masalan, “Sharlar” o`yini. Bunda sahnaga bir qancha o`quvchi chiqariladi. Ularga ichida savollari bor sharlar beriladi va o`quvchilar tezlikda sharni yorib ichidagi hadis yoki hadis ilmiga bog`liq savolga javob topsa demak u o`yin g`olibi hisoblanadi. O`yin o`tkazilgach g`olibga sovrin topshiriladi.

Boshlovchi: Raxmat. Endi navbat sardorlar bahsiga. Hozir davraga “Zukkolar” hamda “Porloq kelajak” guruhlarining sardorlarini taklif etamiz. Sardorlar hozir bir–biriga hadislar, Imom al Buxoriy, Imom at–Termiziy haqida savollar berishadi. Agarda qaysi guruh sardori savol topa olmasa yoki javob bera olmasa o`sha guruh sardori ushbu shartimizda mag`lub bo`ladi.

“Zukkolar “ guruhi sardori: –Imom al Buxoriyning hadislarini qanday hadislar?

“Porloq kelajak” guruhi sardori: –Ishonarli hadislar, ya'ni “sahih” hadislar.

PKGS: – Imom al Buxoriy kichikligida nechta hadisni yod bilgan?

ZGS: – 70 mingdan ortiq hadisni yod bilgan.

ZGS: – Imom al–Buxoriyning to`liq ismi qanday?

PKGS: – U kishining to`liq ismlari Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Bardizbah al–Ju'fiy bo`lgan.

PKGS: – Imom al– Buxoriy qachon va qaerda tavallud topgan?

ZGS: – Buxoroda, 810 yil 20 iyulda tavallud topgan.

ZGS: – Hadis so`zining ma'nosi nima?

PKGS: –“naql”, “bildirish”, “hikoya”, “habar” kabi ma'nolarni beradi.

PKGS: – Hadis to`plovchilar nima deb yuritiladi?

ZGS: – Muhaddislar deb yuritiladi.

ZGS: – Vatandosh muhadislardan Imom al Buxoriydan boshqa yana kimlarni bilasiz?

PKGS: –Abu Iso Muhammad ibn Iso at–Termiziy.

Savol – javob huddi shu tarzda davom etib ketaveradi. Toki sardorlardan biri to`xtab qolgunicha.

Bu shartimiz ham har ikkala guruh sardorining bergan javobiga qarab baholanadi.

Boshlovchi: Sizlarga katta rahmat. Mana bugungi bellashuvimizda o`zaro olgan bilimlari bilan kuch sinashgan ikkala guruh sardorining qanchalik balimdonligini ham bilib oldik.

Endi hakamlar hay'ati tomonidan umumiy ballarni eshitsak.

(Shu paytda boshlovchi musiqiy tanaffus e'lon qilishi mumkin, yoki har bir shart orasida qiziqarli o`yinlar, badiiy chiqishlar tashkil qilishi kechaga yanada chiroyli tus berib, qiziqarli bo`lishiga olib keladi).

Hakamlar hay'ati har ikkala guruh ballarini e'lon qiladi va ularni rag`batlantiradi. Bugungi “Beshikdan qabrgacha ilm izla” qiziqarli bellashuvga o`z munosabatlarini bildiradi.

Boshlovchi: – Mana azizlar! Biz bugun sizlar bilan hadis olamiga biroz

sayohat qilib, buyuk allomalarimiz Imom Ismoil al Buxoriy va Imom at-Termiziy bobolarimiz hadislarini qanchalik kishi hayotida muhim ekanligini bilib oldik. qolaversa, ushbu bellashuvimiz orqali siz tengdoshlarimning nechog`lik ko`p hadis bilishlarini va odob- ahloqlarining namunalari bilib oldingiz. Biz o`ylaymizki, ilm insonni yuksak cho`qqilarga etaklaydi. Hadislar ham kishilarning odob-ahloqli bo`lishiga, yuksak ma'naviyatli bo`lishiga yordam beradi.

Biz sizlarga hadislarini ko`proq o`rganishni aytgan holda bugungi kechamizni yakunlaymiz. Barchangizga olloh doimiy madadkor bo`lsin va hamisha olloh yor bo`lsin. Albatta kelgusida yana shunday qiziqarli tadbirlarda ko`rishguncha xayr deb qolamiz.

E'tiboringiz uchun rahmat.

Ilova qilib aytganda ushbu badiiy kechani boshqacha shaklda tashkil etish ham mumkin. Deylik, biror rivoyat epizodlari orqali yoki ertak shaklida, yoki biror voqeaga tayanib, yana shuni ta'kidlash kerakki shartlarni o`quvchilar bilim doirasiga qarab o`zgartirish, kengaytirish, yoki toraytirish mumkin. Albatta bu erda o`qituvchi ko`proq ijodkor bo`lishi lozim.

2.3. Pedagogik tajriba-sinov ishi

Ushbu “4-sinf “ Ma’naviyat qalb quyoshi” bo’limini turli metodlarda o’rganish ” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimiz orqali bugungi kunda ta’lim jarayonidagi muammolar, ularning kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo`llari va ta’limga oid innovatsion texnologiyalar, ularning ta’lim tizimidagi o`rni haqida baholi qudrat ma`lumot berishga, ularning muammolarini hal etishga urinib ko`rdik. Ta`limda uchragan va uchrashi mumkin bo`lgan pedagogik muammolarni o`z qarashimiz bilan hal etishga urindik, ularning yangi mukammal yo`llarini topishga harakat qildik. Biz o`z fikrimizni isbotlash uchun tajriba-sinov ishini olib bordik. Bu tajriba-sinov ishimiz, asosan o`zimiz faoliyat ko`rsatayotgan maktabda olib borildi. Dastlab biz o`ylagan muammolarni kuzatdik, ularni kamchilik deb hisoblagan, o`ylaganlarimizga ishonch hosil qilish uchun Termiz shahidagi 15-maktabning 4«A» va 4«B» sinflarini oldik. Tajriba uchun mas`ul

o`qituvchilar ham birlashtirildi. Rejalar ishlab chiqildi. Biz ishni dastlab mavzu haqida o`quvchilarga tushuncha berishdan boshladik. Maktabda o`qish darslarining holatlari chuqur tahlil qilib o`tildi. Ayrim darslar kuzatildi va bu haqda fikrlar bildirildi. Boshlang`ich sinf o`qish darslarida yaxshi va ifodali o`qish usullari keng tushuntirildi. Yig`ilishlar o`tkazildi. Yig`ilishda mavzuga bog`lab savol-javoblar o`tkazildi. Quyidagi savollar o`rtaga tashlandi:

1. Boshlang`ich sinf o`qish darslarini o`rgatishda nimalarga e`tibor qaratiladi?
2. Siz aynan shu o`rganilayotgan masalaga qanday munosabatdasiz?
3. Boshlang`ich sinf o`qish darslarida o`quvchilarni to`g`ri va ifodali o`qishini qanday tashkil etish kerak?
4. Siz avval aynan shu masalaga oid darslarga e`tibor berganmisiz?
5. Sizni yana ham qiziqtirgan muammolar bormi? Ularni qanday hal qilmoqchisiz?
6. Sizni biz tadqiq etayotgan mavzu qiziqtiradimi?
7. Siz yana qanday muammolarni hal etishga qiziqassiz?
8. Shu mavzu haqida dastlab uslubiy qo`llanmalar bilan tanishganmisiz?
9. Viloyat va tuman seminarlarida bizning mavzu haqida tushuncha olganmisiz?
10. Matbuotda biror maqola o`qiganmisiz?

Bu kabi savollar yozilgan so`rovnomalar fan o`qituvchilariga tarqatilganida, ular bu savolga o`zlarining javoblarini berdilar va fikr-mulohazalarini bildirdilar.

58% o`qituvchilar bizning mavzuimizga juda qiziqishlarini bildirdilar.

32% o`qituvchilar mavzuga qo`shimcha fikr bildirib, yana ham uni takomillashtirishni taklif qildilar.

10% o`qituvchilar bunda betaraf qoldilar.

Tajriba ishlarini III bosqichda olib bordik.

I bosqich. Kuzatuv bosqichi.

Maqsad va vazifalar: O`qituvchi va o`quvchilar jamoasi bilan tanishib, Boshlang`ich sinf o`qish darslarini kuzatish, ta`lim jarayonida bitiruv malakaviy

ishi mavzusiga alohida e`tiborni qaratish.

Men tajriba ishining kuzatuv bosqichida 4^{«A»} va 4^{«B»} sinflarni kuzatdim. Sinf o`quvchilari haqida to`liq ma`lumot oldim. Ular bilan tanishib olgach, o`qish darslarini kuzatdim. Natijani bilish uchun o`quvchilardan tez, to`g`ri o`qish malakalarini bilish maqsadida nazorat ishlarini oldim.


Bular orqali o`quvchilarning bilim darajasini aniqlab oldim. Buning uchun yuqorida aytib o`tilgan topshiriqlarni doskaga yozib berdim. Ularga iloji boricha yordamlashmadim. Ya`ni o`zlari topshiriqlarni mustaqil bajardilar. 4^{«A»} sinfda 38 ta, 4^{«B»} sinfd 37 ta o`quvchi qatnashdi va natija quyidagicha baholandi:

Sinf	O`quvchilar	Qatnashdi
4- A	38	38
4-«B»	37	37


O`quvchilarning o`zlashtirish natijalari quyidagi tarzda baholandi:

a`lo		yaxshi		qoniqarli		qoniqarsiz	
ta	%	ta	%	ta	%	ta	%
10	23,5	12	35,5	10	26	6	15
6	16	146	38	11	30	6	16

Nazorat sinfida o`quvchilarning o`zlashtirish natijalari quyidagi ko`rsatkichni ko`rsatgani aniqlandi:



Tajriba sinfida esa o`quvchilarning o`zlashtirish natijalari quyidagi ko`rsatkichlarni ko`rsatgani aniqlandi:



Bu ma`lumotlardan ko`rinadiki, mavzu haqida o`quvchilar umumiy tushunchaga ega ekanlar.

Shunday qilib, ushbu natijalardan har ikkala sinfnig ona tili darslarida o`zlashtirish ko`rsatkichlarini, bilimlarini bilib oldik. Ushbu natijalarni olgandan so`ng sinfni yanada keng bilib oldik.

So`ng II bosqichga o`tdik. Unda men asosan, o`quvchilarning o`qish darslaridan, ayniqsa, o`quvchilarni to`g`ri va ifodali o`qishga oid bilim saviyalarini shakllantirishga harakat qildim.

II bosqich rivojlantiruvchi bosqich.

Maqsad va vazifalar: Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga oid dars ishlanmalari orqali darsning samaradorligini oshirish, o`quvchilarning o`qish darslarida berilgan matnni to`g`ri va ifodali o`qishga o`rgatishga oid bilim darajalarini shakllantirish masalasini asoslab, bolalarda bu mavzuga bo`lgan qiziqishni oshirish.

Biz tajriba ishimizda bir necha dars ishlanmalaridan foydalandik. Shu dars ishlanmalaridan foydalanib darsni o`tib berdik. So`ng bu darslarni kuzatdik va naitijani oldik: O`quvchilardan darsga tayyorgarlik darajalari so`raldi.

Shunday qilib, biz mavzu haqida tajriba sinfimizda ishni olib borishni boshladik. Buning uchun reja tuzib chiqildi. Shu reja asosida mukammal ish olib borishga harakat qildik. Avval darslarni kuzatdik. Qilinadigan ishlarni belgiladik. Ayrimlaridan voz kechdik. O`quvchilarni zeriktiradigan, o`rinlar olib tashlandi. Darslar asosan, savol-javob, bahs-munozara tarzida o`tkazila boshlandi.

Bu kabi ishlar kelajakda o`tkaziladigan darslarni qanday o`tkazish kerakligini belgilab berdi. Shu sababli, biz ishimizni asosan, o`quvchilarning takliflaridan

kelib chiqib belgiladik.

Tajriba sinflarda 4-sinf o`quvchilarini o`ish darslarida to`g`ri va ifodali o`qishga o`rgatish bo`yicha ish olib borildi. Musobaqa darslari o`tkazildi. Darslarda o`quvchilar rag`batlantirildi. Biz darslarda, asosan, o`quvchilarni rag`batlantirishga e`tiborni qaratdik. Bulardan tashqari uyga berilgan vazifalarga ham e`tibor berdik. Chunki bu uyga berilgan vazifalarni bajarishlari orqali o`quvchilarning mavzuni qay tarzda tushunganliklarini ochiq ko`rish mumkin. Shu sababli qilingan nazorat ishlarida tajriba sinflarida natija yuqori ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Ishimizning 3-bosqichida buni aniqlash imkoniga ega bo`lamiz.

III bosqich. Solishtirma tahlil.

Maqsad va vazifalar: Kuzatuv va rivojlantiruvchi bosqichlaridagi natijalarni solishtirma-analiz qilish, ularni jadvallarda aks ettirish.

O`quvchilarning soni - 38			O`quvchilarning soni- 37		
Nazorat sinfi – 4 -«A»			Tajriba sinfi -4-«B»		
Baholar	Natija	%	Baholar	Natija	%
a`lo	13	32	a`lo	15	40,5
yaxshi	14	42	yaxshi	16	43,2
qoniqarli	11	26	qoniqarli	6	16,3

38-100 %

37-100%

27-X

31-X


38X27 100

37X31 100


X 73 %

X 84 %

Tajriba sinfida o`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagilarni tashkil etadi:



Nazorat sinfida esa o`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagilarni tashkil etadi:



Tajriba natijalarini tahlil qiladigan bo`lsak, nazorat sinfida yaxshi va a`lo baholarning salmog`i 73% ni tashkil etadi. Tajriba sinfida esa yaxshi va a`lo baholarning salmog`i 84% ni tashkil etdi.

Bulardan ko`rinib turibdiki, qilingan tajriba natijasi 15-26 % ga oshgani isbotlandi. Demak, bevosita qiziqarli tarzda tashkil etib olib borilgan dars samarali ekan. Bu orqali o`quvchilarda bizning ishimizga bo`lgan qiziqishlarini ortishiga, ularni shu mavzu yuzasidan erkin va mustaqil fikrlashga yo`naltirildi.

Ikkinchi bob yuzasidan qisqacha xulosa

Ushbu bobda “Ma’naviyat qalb quyoshi” bo’limini o’qitishda metodlar va pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi yuzasidan tadqiqot olib borilib, undan shu xulosaga kelindi. O’quvchilar “ Ma’naviyat- qalb quyoshi “ degan mavzudagi ilk darslardayoq o’qituvchi o’quvchilar ongli va shuuriga salomlashish odobi, jamoat joylarida o’zini tutish, ochiq chehralik bilan muomala qilish,

kattalarga hurmat-izzat ko'rstish haqida bilim berishni maqsad qilib oladi.

Bo'lim materiallarini o'quvchi o'rganib borar ekan, ma'naviyat-insonning fe'l-atvori, axloq- odobini, madaniyati va dunyoqarashini anglatadigan tushuncha ekanligini his qiladi. Xushmuomala, keng tushunchali, boshqalarga faqat yaxshilik qiluvchi, mehnatsevar, fidoi kishilarning ma'naviyat dunyosi boy deb ulug'lanadi. Aksincha, faqt o'zini o'yaydigan xudbin, baxil, ta'magir va yalqov kishilarga ma'naviy dunyosi past, qashshoq deyilishi haqidagi bir qator fikrlar bilan yaqindan tanishib boradilar.

Badiiy asar ustida ishlash va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o'qituvchi badiiy asarning san'at asari sifatida o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini nazarda tutadi.

Badiiy asarda barcha qismlari (g'oyaviy asos, kompozitsiya, syujet, tasviriy vositalar) o'zaro bog'liq bo'ladi. Syujet rivoji asosida asar qahramonlarining yangi-yangi qirralari ochila boradi. Bu xususiyatlar asar ustida ishlashda uni yaxlit o'qish va idrok etishni talab etadi.

O'quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o'stirish orqali ta'lim - tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg'otadi. Asar tahlili o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirishni taqozo qiladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida hadislarni o'qitishning interfaol usullari deb nomlanuvchi bo'limida, bugungi kunda ta'lim tizimining qaytadan isloh qilinishi natijasida yangi ta'lim tizimi joriy qilinishi va Yangi Pedagogik Texnologiyalardan foydalanish maktab dasturlariga va darsliklariga zamon talabiga mos mavzularni mukammal yorituvchi uslublarni dars davomida joriy qilish va ularni qo'llash o'quvchilarning o'qishdagi faoliyati yanada tazkor va amaliy tomonlama yetkazishda muhim o'rin egallaydi.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYA

«Bu yorug` olamda har bir odam o`zining mehribon ota-onasiga, ustoz va muallimlariga nisbatan hamisha minnatdorlik tuyg`usi bilan yashaydi. Inson hamisha umri davomida qanday yutuq va natijalarga erishmasin, qayerda, qanday lavozimda ishlamasin, maktab dargohida olgan ta`lim-tarbiyasi uning yetuk shaxs va malakali mutaxassis bo`lib shakllanishida ulkan ahamiyatga ega ekani shubhasiz»³ deb yurtboshimiz I.A.Karimov o`zlarining «Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch» asarlarida ta`kidlab o`tganlaridek, boshlang`ich sinf o`qituvchilari ilk maktabga qadam qo`ygan bolani savodga, ya`ni o`qish va yozishga o`rgatadilar. Bunda biz “4-sinf “Ma`naviyat qalb quyoshi”bo`limini turli metodlarda o`rganish” mavzusida ish olib borayotgan bitiruv malakaviy ishimizdagi alohida ahamiyatga ega bo`lmish yaxshi, ongli, ifodali o`qishning o`rni kattadir.

Shuni e`tiborga olgan holda, biz o`quvchilarning savodli va to`g`ri o`qishini ta`minlashni o`rganishda kerak edi. Shuni e`tiborga olgan holda Boshlang`ich sinf o`qish darslarida o`quvchilarni to`g`ri va ifodali o`qishga o`rgatishda ilg`or pedtexnologiyalardan foydalanish darslari ham o`quvchilarda o`zgacha qiziqish uyg`otadi. Bu o`quvchilarni tegishli, ya`ni “Ma`naviyat qalb quyoshi” bo`limida berilgan matn bo`yicha to`g`ri va ifodali o`qishga o`rgatish jarayonida ham yaqqol ko`zga tashlanadi. Umuman, har bir boshlang`ich sinf o`qituvchisi o`qish darslarida o`quvchilarni to`g`ri va ifodali o`qitishga o`rgatishda ilg`or texnologiyalardan foydalanish bo`yicha olib boriladigan darslarini iloji boricha bir-birini takrorlamagan holda tashkil etib olib borishsa maqsadga muvofiq bo`lar edi. Buning uchun o`qituvchilar yangi pedagogik texnologiyani, integratsiyani chuqur bilishlari, o`z kasblariga bo`lgan hurmatni yo`qotmagan holda darslarni tushkil etib olib borishlari lozim bo`ladi. Agar shularni bilishmasa, iloji boricha o`z kasbdoshlarining darslarini kuzatishlari kerak bo`lsa, malaka oshirish kurslarida malaka oshirib kelishlari kerak. Bu ham ularning mazkur mavzularni o`tishlari jarayonida o`zining ijobiy tomonlarini yaqqol ko`zga tashlanishiga sabab

³ Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008.- B. 130-131.

bo`ladi. Natijada esa o`qish darslarida o`quvchilarni to`g`ri va ifodali o`qishga o`rgatishda ilg`or texnologiyalardan foydalanish bo`yicha olib boriladigan darslarga katta qiziqish bilan munosabatda bo`lishadi, yaxshi taassurot olishadi. Bu esa ushbu berilgan matn bo`yicha ularning erkin va mustaqil fikrlashga, to`g`ri va ifodali, savodli o`qishga o`rgatibgina qolmay, o`zi bemalol o`qish darslarida “Ma`naviyat qalab quyoshi” bo`limida berilgan matn bo`yicha yaxshi o`qish malakalarini to`liq o`zlashtirib borishlariga ham sabab bo`ladi. Bugungi kunda o`quvchilar ma'naviyatini shakllantirishga va rivojlantirishga kuchli ehtiyoj mavjudligini hisobga olgan holda, nafaqat yuqori sinf o`quvchilari ta'lim dasturida, balki boshlang`ich sinf o`quvchilari darsliklarida ham hadislardan o`rinli ravishda foydalanib borish, o`quvchilar ma'naviyatini shakllantirish vazifalari davrimizning eng dolzarb muammolari hisoblanadi. Bu muammolar o`quvchilarda yuksak ahloqiy fazilatlar: mehr–oqibat, halolik, insonparvarlik, vatanparvarlik, hurfikrlilik, odamiylik kabi sifatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. qolaversa, bunday ilmiy–amaliy va o`quv jarayoni boshlang`ich sinf o`quvchilariga dars o`tishda hadislardan unumli va o`rinli foydalanish, ta'limning shakl va usullari uyg`unlashuvini keltirib chiqaradi. Xususan, suhbat, bahs–munozara, aqliy hujum usullari, har xil tadbirlar va to`garaklar tashkilida, dars mashg`ulotlarini, ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish natijasida hadislarni o`quvchilarga o`rgatish maqsadning tez va aniq bajarilishini ko`rsatadi.

TAVSIYALAR

Boshlang`ich sinflarda maktab ta`limining yetakchi predmetlaridan bo`lgan o`qish darslarida olingan bilimlar poydevoriga quriladi.

O`quvchilarni yaxshi o`qish malakalarini o`stirishda eng munosib, eng qulay metod va usullardan, ilg`or pedagogik texnologiyalardan o`z o`rnida va maqsadga muvofiq foydalanish o`qish-o`qitish ishida samarali natijalarga erishiladi. O`qituvchi va o`quvchilarning birgalikdagi ijodiy faoliyati mavzularning o`zlashtirilishini osonlashtiradi.

Ushbu tadqiqot ishining nazariy va amaliy jihatlariga, olib borilgan tajriba-sinov ishlari va ularning natijalariga asoslanib, o`rganish, o`zlashtirish,

mulohazalardan kelib chiqqan holda, boshlang`ich sinflarda o`quvchilar yaxshi o`qish malakalarini shakllantirishga oid bilimlarni o`rganish yuzasidan bir qator tavsiyalarni havola qilishni lozim ko`rdik.

Bular:

1. O`quvchilar yaxshi o`qish malakalarini o`stirishda mavzularni bir-biri bilan chambarchas bog`liq tarzda o`rgatib borish.

2. Ongli o`qishga o`rgatishda o`qish darslarida berilgan ma`naviyatga oid mavzulardan keng foydalanish

3. O`quvchilarning mavzularni ongli o`zlashtirishlariga, mustaqil fikrlashlariga erishish choralarini topish.

4. Har bir darsga ijodiy yondoshish.

5. Darsda xilma-xil usullardan, interfaol metodlardan, ilg`or pedagogik texnologiyadan keng, o`rinli va maqsadga muvofiq foydalanish.

6. Turli didaktik o`yinlar bilan o`quvchilarni mavzuni o`rganish va o`zlashtirishga qiziqtirish.

8. Metodik yangiliklardan va pedagogik tajribalardan har doim boxabar bo`lib, ularni ta`lim jarayoniga tadbiiq qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

I. Ijtimoiy – siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Barcha reja va darsturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”, “Xalq so`zi” gazetasi, 2011 yil 22 yanvar;
2. Karimov I.A. O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimidagi so`zi, “O`zbekiston ovozi” gazetasi, 2010 yil 1-sentabr;
3. Karimov I.A. Mamalakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.-T.:O`zbekiston, 2010.-56 b
4. Karimov I.A. “Mamalakatimizni modernizatsiya qilish yo`lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omilidir”, “Ishonch” gazetasi, 2010 yil 8 dekabr;
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. –T.:O`zbekiston, 2009.-56 b
6. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T.:2008.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.: 1997. 5- jild.
8. Karimov I.A. Barkamol avlod O`zbekiston tarakkiyotining poydevori. T.: 1998.

II. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar.

1. Abdullaeva K. Nazarov K. Yo`ldosheva Sh. Savod o`rgatish darslari . T.: O`qituvchi .1996 .
2. Abdullaeva K. va boshqalar . Ona tili . T.: O`qituvchi .1999.
3. Abdullaeva K. va boshqalar. O`qish ktobi . 2- sinf uchun. T.: 2006.
4. Abdullaeva K. va boshqalar. 2- sinfda o`qish darslari , T.: 2004
5. Fuzailov S. , Xudoyberganova M., Ona tili . 3- sinf uchun T.: O`qituvchi .2005.
6. Ikromova R. G`ulomova X. Yo`ldosheva Sh. Shodmonqulova D. Ona tili . 4- sinf uchun T.: O`qituvchi . 2007

7. Umarova M. , Hakimova Sh. O'qish kitobi . 3- sinf uchun, T.: 2006 .
8. Umarova M . 3- sinfga o'qish darslari , T.: O'qituvchi. 2004 .
9. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi. T.: O'qituvchi. 1999.
- 10.Matchonov S. Shojalilov A. Gulomova X. Sariev Sh. O'qish kitobi .
- 11.4- sinf uchun. T.: 2007.
- 12.Matchonov S. va boshqalar 4- sinfga o'qish darlari , T., 2007.
- 13.Qosimova K. Fuzailov S. Ne`matova A. Ona tili . 2- sinf uchun T.:
- Cho`lpon. 2005.
- 14.Qosimova K. Ne`matova A. 2- sinfda ona tili darslari T.: Cho`lpon. 2004.
- 15.Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbikiy asoslari. T.: Fan.. 2006.
- 16.O'qish kitobi . 1-sinf uchun. T. : 2006
- 17.O'quvchi ma`naviyatini shakllantirish. T.: Sharq. 2000.
- 18.Xudoyberganova M. Muxtorova M. 3- sinfda ona tili darslari. 3- sinf uchun T.:
- O'qituvchi .2005.
- 19.Xudoyberganova M. “ Bayonlar to'plami ” Toshkent 1995
- 20.Yuldoshev J. G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari ., T.:
- O'qituvchi. 2004.
- 21.G'ulomova X. Yo`ldosheva Sh.Shermatova U. 4- sinfda ona tili darslari. T.:
- O'qituvchi . 2003
- 22.G'affarova T. va boshqalar. 1-sinfda o'qish darslari . T. : 2003 .
- 23.G'apparova T., Shodmonov E , Eshturdieva G. Alifbe .(Savod .) ” T .:
- “O'qituvchi ”1999 yil
- 24.Safarova R . va boshqalar “Alifbe ” T ., 2006 .
- 25.G'ulomov M. Yozuv daftari. T., Ma`naviyat. 2006
- 26.Safarova R. Va b. Savod o`rgatish. T.: Ma`naviyat. 2003.
- 27.G'afforova T. G'ulomova X. Eshturdieva G. 1- sinfda savod o`rgatish. T.:
- Sharq. 1996.
- 28.G'apparova T., Shodmonov E. , Eshturdieva G. Ona tili . 1-sinf uchun. T .:
- O'qituvchi .1999.

- 29.G'apparova T., Shodmonov E, G'ulomova X. Ona tili . 1-sinf uchun.
30.T .:Sharq. 2005.
31.G'ulomova X. G'afforova T. 1- sinfda ona tili darslari. T.: Sharq. 2003.

www.ziyonet.uz

www.edu.uz

www.tuit.uz

www.pedagog.uz